

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**FAOLIYATNI BOSHLASH YOKI TUGATISH UCHUN VAKOLATLI ORGANNI
XABARDOR QILISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI YAGONA NIZOMNI TASDIQLASH
HAQIDA**

“Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining **Qonuni** hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son **Farmoni** ijrosini ta‘minlash, shuningdek, vakolatli organni xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlarini boshlash va tugatishning unifikatsiyalashgan tartibini belgilash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor qilish tartibi to‘g‘risidagi yagona nizom **1-ilovaga** muvofiq;

Faoliyatni boshlash yoki tugatish bilan bog‘liq ma‘muriy shikoyatlarni respublika darajasida ko‘rib chiqish bo‘yicha apellyatsiya kengashlarining (keyingi o‘rinlarda — Apellyatsiya kengashi) namunaviy tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda “Litsenziya” axborot tizimi orqali kelib tushadigan so‘rovlar bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari tomonidan taqdim etiladigan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi uchun tegishli davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari shaxsan javobgar hisoblanadi.

3. Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun xabarnomalarni respublika darajasida qabul qiluvchi vakolatli organlar bir oy muddatda shikoyatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha Apellyatsiya kengashi tarkibini tasdiqlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda 2022-yil 1-aprelga qadar Qurilish-montaj ishlarini boshlaganlik to‘g‘risidagi xabarnomaning pasportini tasdiqlash bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritsin.

5. Mazkur qaror 2022-yil 1-martdan kuchga kiradi.

6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi:

a) xabardor qilish tartib-taomillari “Litsenziya” axborot tizimi va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshirilishi bo‘yicha aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun manzilli va predmetli targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirsin;

b) manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **3-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **4-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari — iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vaziri J.A. Qo‘chqorov hamda O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri R.Q. Davletov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2022-yil 25-fevral,
88-son

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 88-son qaroriga
1-ILOVA

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor qilish tartibi to'g'risida

YAGONA NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom xabardor qilish talab etiladigan faoliyatni (harakatlarni) boshlaganlik va tugatganlik haqida vakolatli organga xabarnoma yuborish, xabardor qiluvchilar faoliyatini nazorat qilish va ularning hisobini yuritish tartibini belgilaydi.

2. Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat (harakatlar) turlari "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining **Qonuni** bilan belgilanadi.

Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat (harakatlar) turlari bilan xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organlarni xabardor qilmasdan shug'ullanish taqiqlanadi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat (harakatlar) — faoliyatni (harakatlarni) boshlash uchun vakolatli organ tomonidan qaror qabul qilinishini talab etmaydigan, biroq davlat tomonidan tartibga solinishini ta'minlash, shuningdek, tegishli faoliyat bilan shug'ullanayotgan subyektlarning hisobini yuritish va faoliyatini nazorat qilish uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar va shartlarga rioya etish bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar o'z zimmasiga majburiyatlar qabul qilishi orqali amalga oshiriladigan faoliyat turlari;

xabardor qiluvchilar — vakolatli organga xabarnoma yuborgan va xabarnomalar reyestriga kiritilgan jismoniy yoki yuridik shaxslar;

xabarnoma — xabardor qilish tartibida faoliyatni (harakatlarni) amalga oshirishni boshlash (tugatish) uchun xabardor qiluvchilar tomonidan vakolatli organga yuboriladigan ma'lumotlar;

xabardor qilish tartib-taomillari sohasidagi vakolatli organlar (keyingi o'rinlarda — vakolatli organ) — xabarnomani qabul qiluvchi, xabardor qilish tartibi amalga oshiriladigan muayyan faoliyat turlarini tartibga soluvchi va xabarnomalar reyestrini yurituvchi davlat organi (uning hududiy bo'linmasi) yoki boshqa tashkilot;

"Litsenziya" axborot tizimi (keyingi o'rinlarda — "Litsenziya" AT) — litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari bilan bog'liq barcha jarayonlarni qamrab olgan, idoralararo elektron o'zaro hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'lgan tizim;

tasdiqnoma — xabardor qiluvchilar o'z faoliyatini boshlagani yoki tugatgani haqida vakolatli organni xabardor qilganini tasdiqlovchi, "Litsenziya" AT orqali avtomatik tarzda shakllantiriladigan, matritsali shtrix kodga (QR-kod) ega bo'lgan va ushbu Nizomga **1-ilovada** keltirilgan namunaviy shakldagi elektron hujjat;

Oldingi tahrirga qarang.

faoliyatni amalga oshirishning talablari va shartlari — xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi bilan shug'ullanishda xabardor qiluvchilar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan, shuningdek, ushbu Nizomga **2 — 29-ilovalarda** keltirilgan pasportlarda belgilangan talablar va shartlarning majmui (keyingi o'rinlarda — pasportlar);

(3-bandning sakkizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

xabarnomalar reyestri — faoliyatini xabardor qilish tartibida amalga oshirayotgan, to'xtatib turilgan, qayta tiklangan, tugatilgan xabardor qiluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan vakolatli organlarning ma'lumotlar bazalari;

shikoyat — vakolatli organning harakatlari (harakatsizligidan) norozi bo'lgan holda, xabardor qiluvchilarning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi talab bayon etilgan murojaati.

4. Xabardor qiluvchilar o'z faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risidagi xabarnomani Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda — YIDXP) yoki "Litsenziya" AT orqali xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni boshlashdan oldin elektron shaklda yuboradi.

Xabarnoma “Litsenziya” AT yoki YIDXP orqali dam olish va bayram kunlaridan qat’i nazar, har kuni 24 soat davomida yuborilishi mumkin.

Bunda xabarnoma “Litsenziya” AT yoki YIDXP orqali qabul qilingan vaqtdan boshlab, vakolatli organ xabardor qilingan hisoblanadi.

5. Amalga oshirilishi uchun vakolatli organni xabardor qilish talab etiladigan faoliyat turlari qonun bilan belgilanadi.

Vakolatli organni xabardor qilmasdan, xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari bilan shug’ullanish taqiqlanadi.

2-bob. Faoliyatni amalga oshirishning talablari va shartlari

6. Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatga (harakatlarga) doir talablar va shartlar quyidagilar hisoblanadi:

pasportlarning 9-bandida keltirilgan talablar va shartlarga rioya etilishi shartligi hamda ularni bajarish bo’yicha majburiyatni o’z zimmasiga olish;

xabarnomada ko’rsatilgan axborotning ishonchliligini ta’minlash;

xodimlar bilan yangi mehnat shartnomalari tuzilganligi, shartnomalarga o’zgartishlar kiritilganligi va ularni bekor qilish holatlarini, shuningdek, amaldagi mehnat shartnomalari to’g’risidagi axborotni “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksida majburiy ro’yxatdan o’tkazish — tegishli faoliyatni (harakatlarni) amalga oshirish uchun xodimlarga nisbatan talab mavjud bo’lgan taqdirda;

xabardor qiluvchilarning nomi, yuridik manzili o’zgarganligi ro’yxatdan o’tkazilgandan so’ng yoki filial va vakolatxona ochilgandan so’ng vakolatli organga o’n ish kuni ichida “Litsenziya” AT yoki YIDXPdagi shaxsiy kabineti orqali xabar berish.

7. Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatga (harakatlarga) doir talablar va shartlarni qo’pol ravishda buzishga doir holatlar pasportlarda belgilanadi.

3-bob. Faoliyatni boshlash haqida xabarnoma yuborish va uni hisobga olish tartibi

Oldingi tahrirga qarang.

8. Xabardor qiluvchilar elektron raqamli imzosidan (keyingi o’rinlarda — ERI) foydalangan holda (talabgor — jismoniy shaxslar uchun ERI o’rniga Mobil-ID tizimidan ham foydalanish mumkin), faoliyatni amalga oshirishni boshlashi uchun vakolatli organga “Litsenziya” AT yoki YIDXP orqali xabarnoma yuboradi.

(8-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 541-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.09.2022-y., 09/22/541/0859-son)

9. Xabarnomani yuborishda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan faoliyat turi yoki uning bir qismi tanlanadi va tegishli faoliyat turi uchun pasportlarning 6-bandida nazarda tutilgan ma’lumotlar kiritiladi (yuklanadi).

Bunda xabarnomaga ilova qilinadigan (yuklanadigan) tegishli hujjatlar elektron shaklda (PDF, PNG yoki JPEG formatda) bo’lishi kerak.

10. Pasportlarning 6-bandida nazarda tutilgan ma’lumotlar va hujjatlardan tashqari boshqa hujjatlarni talab qilishga yo’l qo’yilmaydi.

11. Xabardor qiluvchilar xabarnomani yuborishda pasportlarning 9-bandida nazarda tutilgan talablar va shartlarga muvofiq ekanligini tasdiqlashi lozim.

12. Xabarnoma yuborganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorigacha yig’im undiriladi (alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilish va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini sotishni boshlaganlik haqidagi xabarnomalar bundan mustasno).

Xabarnoma yuborganlik uchun yig’im to’langanligi axborot-kommunikatsiya tizimlari vositasida tasdiqlanadi.

13. Xabarnomada ma’lumotlar noto’g’ri kiritilganligi aniqlagan taqdirda, xabardor qiluvchilar noto’g’ri ma’lumotlarni ushbu Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan yig’imni to’laguniga qadar o’zgartirishga haqli.

14. Yig’im summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

Oldingi tahrirga qarang.

10 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg‘armasiga;

(14-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-iyuldagi 385-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.07.2022-y., 09/22/385/0643-son)

11,25 foiz — Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun, shuningdek 0,5 foizi Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlari ko‘rsatganlik uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasining elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha maxsus hisobvarag‘iga; qolgan mablag‘lar — vakolatli organlar hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

15. Xabarnomada kiritilgan ma’lumotlar “Litsenziya” AT orqali idoralararo hamkorlik tizimlarida mavjud ma’lumotlar asosida avtomatik tarzda taqqoslanadi va o‘rganiladi.

16. Xabarnoma quyidagi hollarda avtomatik tarzda qabul qilinmaydi:

noto‘g‘ri yoki yolg‘on axborot kiritilganligi “Litsenziya” AT orqali aniqlanganda;

ushbu Nizom 12-bandining *birinchi xatboshida* nazarda tutilgan yig‘im to‘lanmaganda;

faoliyatni (harakatlarni) xabardor qilish tartibida amalga oshirish uchun belgilangan talablar va shartlarga rioya etilganligi hamda ular bajarilganligi tasdiqlanmaganda;

agar xabardor qiluvchilar avval xabarnomalar reyestriga aynan o‘sha faoliyat (harakatlar) bo‘yicha kiritilgan bo‘lsa va ularning faoliyati (harakatlari) amalga oshirilayotgan bo‘lsa;

vakolatli organ yoki sud tomonidan xabardor qiluvchilarning faoliyati (harakatlari) muayyan muddatga to‘xtatib turilganda;

xabardor qiluvchilar tomonidan tegishli faoliyatni (harakatlarni) amalga oshirish sudning qaroriga asosan taqiqlanganda.

Ushbu bandda ko‘rsatib o‘tilgan holatlardan tashqari boshqa asoslar bilan xabarnomani qabul qilmaslikka yo‘l qo‘yilmaydi.

17. Belgilangan talablarga rioya qilingan holda yuborilgan xabarnoma “Litsenziya” AT orqali avtomatik tarzda qabul qilinadi.

18. Qabul qilingan xabarnoma asosida xabardor qiluvchilarning “Litsenziya” AT yoki YIDXPdagi shaxsiy kabinetida ushbu Nizomning 3-bandi *yettinchi xatboshida* nazarda tutilgan tasdiqnoma avtomatik tarzda shakllanadi.

Bunda xabardor qiluvchilar xabarnoma qabul qilinganligi to‘g‘risidagi tasdiqnomani “Litsenziya” AT yoki YIDXPdagi shaxsiy kabinetini orqali yuklab olishi mumkin. Xabardor qiluvchilarning xohishiga ko‘ra mobil aloqa raqamiga SMS-xabar shaklida ham yuborilishi mumkin.

19. Tasdiqnoma davlat tilida rasmiylashtiriladi. Xabardor qiluvchilar xohishiga ko‘ra tasdiqnoma rus va ingliz tillarida yoki imkon bo‘lsa, “Litsenziya” AT imkoniyati doirasi boshqa tilda rasmiylashtirilishi mumkin.

20. Tasdiqnoma yuborilgan xabardor qiluvchilar to‘g‘risidagi axborot xabarnomalar reyestrda avtomatik ravishda shakllantiriladi.

4-bob. Xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatini to‘xtatish, qayta tiklash va tugatish tartibi

21. Xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyati (harakatlari) quyidagi asoslarga ko‘ra muayyan muddatga to‘xtatilishi mumkin:

vakolatli organning tashabbusi bilan;

faoliyatni tugatish to‘g‘risida ish sudda ko‘rib chiqilib, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgunga qadar.

22. Vakolatli organ o‘zining tashabbusi bilan pasportlarning 9-bandida nazarda tutilgan talablar va shartlar buzilganligi aniqlangan taqdirda, xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni (harakatlarni) o‘n ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatga to‘xtatib turishi mumkin.

23. Xabardor qiluvchilarning faoliyatini to‘xtatish asoslari aniqlangan taqdirda, to‘plangan ma’lumotlar va hujjatlar asosida vakolatli organ (uning hududiy bo‘linmalari) xabardor

qiluvchilarning faoliyatini qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirishi mumkin. Tekshirish natijalari bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtiriladi va xabardor qiluvchilar (yoki ularning vakili) dalolatnoma bilan tanishtiriladi (imzosi olinadi).

24. Agarda xabardor qiluvchilar (yoki ularning vakili) dalolatnoma bilan tanishishdan (imzo qo'yishdan) bosh tortgan taqdirda, dalolatnomaga bu haqda tegishli ma'lumot kiritilib, xolis guvohlar ishtirokida rasmiylashtiriladi.

25. Rasmiylashtirilgan dalolatnoma elektron shaklda (PDF formatda) vakolatli organ tomonidan bir ish kuni ichida xabardor qiluvchilarning "Litsenziya" AT yoki YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga yuborilishi shart.

Bunda dalolatnoma yuborilgan kundan xabardor qiluvchilar u bilan tanishtirilgan hisoblanadi.

26. Dalolatnoma tuzilgan kundan e'tiboran bir ish kuni ichida vakolatli organ xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni (harakatlarni) o'n ish kunidan ortiq bo'lmagan muddatga va ushbu muddatda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan qaror qabul qilingunga qadar to'xtatishi lozim.

Bunda qaror vakolatli organning birinchi rahbari (yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs) tomonidan "Litsenziya" AT orqali ERI bilan tasdiqlanadi.

27. Qabul qilingan qaror "Litsenziya" AT orqali avtomatik tarzda xabardor qiluvchilarning "Litsenziya" AT yoki YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga shu kunning o'zida yuboriladi hamda xabarnomalar reyestrda xabardor qiluvchilarning faoliyati to'xtatilganligi to'g'risida ma'lumot kiritiladi. Qabul qilingan qaror haqida xabardor qiluvchilar tegishli tarzda xabardor qilinishi lozim.

28. Xabardor qiluvchilar o'zining xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni (harakatlarni) to'xtatib turish to'g'risidagi qaror kelib tushgan kundan e'tiboran qarorda ko'rsatilgan muddatda aniqlangan holatlarni bartaraf etishi va asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda "Litsenziya" AT yoki YIDXPdagi shaxsiy kabineti orqali vakolatli organga yuborishi lozim.

29. Vakolatli organ (uning hududiy bo'linmalari) kamchiliklar bartaraf etilganligi to'g'risidagi xabarni va bu haqda asoslantiruvchi hujjatlarni olgandan so'ng besh ish kuni ichida ma'lumotlarni tahlil qiladi. Zaruratga ko'ra joyiga chiqqan holda o'rganishi mumkin va bu haqda ushbu Nizomning 23-bandida nazarda tutilgan tartibda dalolatnoma rasmiylashtiriladi va xabardor qiluvchilarga yetkaziladi.

30. Ushbu Nizomning 27, 28 va 29-bandlarida ko'rsatilgan holatlarda xabardor qiluvchilarning faoliyati muayyan muddatga to'xtatilgan hisoblanadi.

Agar xabardor qiluvchilar kamchiliklar bartaraf etilganligi to'g'risida xabarni va asoslantiruvchi hujjatlarni taqdim etgandan so'ng besh ish kuni ichida vakolatli organ faoliyatni qayta tiklash yoki tiklashni rad etish to'g'risidagi qaror qabul qilmasa, xabardor qiluvchilarning faoliyati qayta tiklangan hisoblanadi va xabarnomalar reyestrda avtomatik ravishda bu haqda ma'lumot chiqadi.

31. Qarorda nazarda tutilgan holatlar bartaraf etilganligi bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtirilgandan so'ng bir ish kuni ichida vakolatli organ:

xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni (harakatlarni) qayta tiklash to'g'risida qaror qabul qilishi;

xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni (harakatlarni) qayta tiklash to'g'risidagi qarorning elektron shaklini xabardor qiluvchilarning "Litsenziya" AT yoki YIDXPdagi shaxsiy kabineti orqali yuborishi;

xabardor qiluvchilarning faoliyati qayta tiklanganligi to'g'risidagi ma'lumotni xabarnomalar reyestriga kiritishi lozim.

32. Xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyati (harakatlari) quyidagi holatlarda tugatilishi mumkin:

xabardor qiluvchilar tomonidan o'z faoliyatini (harakatlarini) tugatish to'g'risida vakolatli organga yuborgan xabarnomaga;

ushbu Nizomda nazarda tutilgan talablar va shartlar buzilgan taqdirda, sudning qaroriga asosan.

33. Xabardor qiluvchilar o'z faoliyatini (harakatlarini) tugatishi to'g'risida "Litsenziya" AT yoki YIDXPdagi shaxsiy kabineti orqali soddalashtirilgan tartibda vakolatli organga xabarnoma yuboradi.

Bunda alohida ma'lumot va hujjatlarni "Litsenziya" AT yoki YIDXPga kiritish talab etilmaydi (pasportlarda alohida tartib nazarda tutilgan hollar bundan mustasno).

Faoliyatni tugatish to'g'risidagi xabarnoma yuborilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

34. Faoliyatni (harakatlarni) tugatish to'g'risidagi xabarnoma yuborilgandan so'ng xabardor qiluvchilarning faoliyati xabarnomada ko'rsatilgan sanadan tugatilgan hisoblanadi va bu haqda xabarnomalar reyestrda avtomatik tarzda belgi qo'yiladi.

35. Xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni (harakatlarni) tugatish to'g'risidagi ariza sudga vakolatli organ tomonidan quyidagi hollarda beriladi:

xabardor qiluvchilar tomonidan faoliyatni (harakatlarni) boshlash to'g'risida yuborilgan xabarnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning yolg'on yoki noto'g'ri ekanligi aniqlanganda;

pasportlarda belgilangan talablar va shartlar buzilishiga olib kelgan kamchiliklar xabardor qiluvchilar tomonidan belgilangan muddatda bartaraf etilmaganda;

belgilangan talablar va shartlarni muntazam ravishda (bir yil davomida ikki va undan ortiq marta) yoki bir marta qo'pol ravishda buzganda, agar bu qoidabuzarliklar fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilishiga, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini poymol qilinishiga, jamoat xavfsizligi holati yomonlashishiga va atrof muhitga zarar yetkazilishiga olib kelgan bo'lsa.

36. Ushbu Nizomning 35-bandida nazarda tutilgan hollarda vakolatli organ ushbu holat yuzasidan mazkur Nizomning 23 va 24-bandlariga asosan dalolatnoma rasmiylashtiradi va bir ish kuni ichida xabardor qiluvchilarning "Litsenziya" AT yoki YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga yuboradi.

Dalolatnoma rasmiylashtirilgandan so'ng vakolatli organ besh ish kuni ichida sudga xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibidagi faoliyatni (harakatlarni) tugatish haqida da'vo arizasini taqdim etadi.

Sudga taqdim etilgan da'vo arizasining elektron shakli (PDF formatini) "Litsenziya" AT orqali xabardor qiluvchilarning "Litsenziya" AT yoki YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga yuborilishi hamda bu haqda xabarnomalar reyestriga tegishli ma'lumotlarni kiritilishi shart.

Vakolatli organ besh ish kuni ichida sudga xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibidagi faoliyatini tugatish haqida da'vo arizasini kiritmasa, xabardor qiluvchilarning faoliyati qayta tiklangan hisoblanadi va xabarnomalar reyestrda avtomatik ravishda bu haqda ma'lumot chiqadi.

37. Faoliyatni tugatish to'g'risidagi da'vo arizasi sudga ko'rib chiqilib, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgunga qadar xabardor qiluvchilarning faoliyati muayyan muddatga to'xtatib turiladi.

38. Vakolatli organ ushbu Nizomning 35-bandida nazarda tutilgan holatlar yuzasidan sudga taqdim etadigan arizasida xabardor qiluvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklarning ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda uch oygacha bo'lgan muddatga xabardor qiluvchilarning xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatini (harakatlarini) taqiqlash to'g'risida talab qo'yishi mumkin. Bunda xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni (harakatlarni) amalga oshirishni taqiqlashning aniq muddati sud tomonidan qonunda belgilangan tartibda aniqlanadi.

39. Sudning faoliyati tugatilganligi to'g'risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan so'ng vakolatli organ uch ish kuni ichida bu haqda xabarnomalar reyestriga tegishli ma'lumotni kiritadi.

Xabardor qilish faoliyati sud tartibida tugatilgan shaxslar maxsus elektron tizimda alohida ro'yxatga kiritiladi.

5-bob. Faoliyatni nazorat qilish tartibi

40. Xabarnomalar reyestriga kiritilgan hamda faoliyatini amalga oshirayotgan xabardor qiluvchilarning belgilangan talablar va shartlarga rioya etishi vakolatli organ (yoki uning hududiy bo'linmalari) tomonidan nazorat qilinadi.

41. Nazorat qilish quyidagi shakllar bo'yicha amalga oshiriladi:

“Litsenziya” AT orqali xabardor qilish talablari hamda shartlariga rioya etilishi bo'yicha masofaviy monitoring;

xabardor qilish talablari hamda shartlariga rioya etilishini asoslar mavjud bo'lgan taqdirda va tekshiruvlarni muvofiqlashtiruvchi vakolatli organ bilan belgilangan tartibda kelishilganda joyiga chiqqan holda tekshirish orqali;

xabardor qiluvchilarning faoliyati bilan bog'liq statistik axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish orqali.

Vakolatli organlarga xabardor qiluvchilar faoliyatini nazorat qilish bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazish chog'ida pasportlarda nazarda tutilmagan talablar va shartlarning bajarilishini tekshirish yoki ulardan ushbu shartlar va talablarning bajarilishini talab qilish taqiqlanadi.

42. Vakolatli organ “Litsenziya” AT imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, xabardor qiluvchilarning xodimlari talab va shartlarga rioya qilganligi to'g'risida kiritilgan ma'lumotlar, shuningdek vakolatli organlar va idoralardan olingan boshqa axborotlar asosida masofaviy monitoringni amalga oshiradi.

43. Vakolatli organ masofaviy monitoringni amalga oshirish jarayonida xabardor qiluvchilar tomonidan belgilangan talablar va shartlarni buzish holatlari aniqlangan taqdirda, o'n ish kunidan kam bo'lmagan muddatda aniqlangan holatlarni bartaraf etish yuzasidan xabardor qiluvchilarga “Litsenziya” ATdagi shaxsiy kabineti orqali ogohlantirish xati yuboradi.

Bunda xabardor qiluvchilarning faoliyatini to'xtatishga yo'l qo'yilmaydi.

44. Agarda ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddatda xabardor qiluvchilar aniqlangan holatlarni bartaraf etmasa va bu haqda vakolatli organni “Litsenziya” AT orqali xabardor qilmasa, vakolatli organ “xavfni tahlil qilish” tizimi natijalari asosida joyiga chiqqan holda tekshirishi mumkin.

45. Xabardor qilish talablari va shartlariga rioya etilishini joyga chiqqan holda tekshirish quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda “xavfni tahlil etish” tizimi natijalari;

jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan, jamoatchilik nazorati subyektlarining murojaatlari;

“Litsenziya” AT orqali yuborilgan litsenziyalash, ruxsat berish va xabarnoma yuborish sohasidagi qonunchilik hujjatlarini buzishga doir jismoniy shaxslarning ma'lumotlari.

46. Ushbu Nizomning [45-bandida](#) nazarda tutilgan tekshirishlar belgilangan tartibda tekshiruvlarni muvofiqlashtiruvchi vakolatli organ bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

47. Xabardor qilish talablari va shartlariga rioya etilishi joyga chiqqan holda o'n kungacha bo'lgan muddatda tekshiriladi.

6-bob. Xabarnomalar reyestrini yuritish tartibi

48. Xabarnomalar reyestrda xabardor qiluvchilarning faoliyat yuritayotganligi, faoliyati to'xtatilganligi, qayta tiklanganligi, tugatilganligi va boshqa holatlar to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

Xabarnomalar reyestri har bir faoliyat turi uchun alohida-alohida yuritiladi.

49. Xabarnomalar reyestri “Litsenziya” ATda elektron shaklda yuritiladi va undagi ma'lumot barcha uchun ochiq hisoblanadi.

Xabardor qiluvchilar xabarnomalar reyestriga kiritilganligi bo'yicha tasdiqnomani “Litsenziya” AT yoki YIDXPdagi shaxsiy kabineti orqali istalgan vaqtda cheklanmagan tarzda yuklab olishi mumkin.

50. Xabarnomalar reyestri avtomatik tarzda shakllantiriladi va uning doimiy yuritilishi va unga tegishli o'zgartirishlarni kiritish vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi.

Vakolatli organ xabarnomalar reyestrini yuritishda ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartiblarga amal qilishi lozim.

51. Vakolatli organ quyidagi ma'lumotlarni xabarnomalar reyestriga o'z vaqtida kiritib borishga javobgar:

xabardor qiluvchilarning faoliyati to'xtatilganligi to'g'risida;

xabardor qiluvchilarning faoliyati qayta tiklanganligi to'g'risida;

xabardor qilish tartibidagi faoliyat tugatilganligi to'g'risida.

52. Xabarnomalar reyestri xabardor qiluvchilarning davlat tomonidan hisobga olinishini ta'minlash va ular to'g'risida ma'lumotlar berish, shuningdek, xabardor qiluvchilarning xabarnomada ko'rsatilgan faoliyati yuzasidan davlat nazoratini o'rnatish maqsadida yuritiladi.

53. Har bir xabarnomalar reyestrda quyidagilar ko'rsatiladi:

xabardor qiluvchilarning reyestr tartib raqami, ularning nomi (familiyasi, ismi, otasining ismi), joylashgan joyi (pochta manzili), yuridik shaxs uchun — soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR), jismoniy shaxs uchun — jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSH SHIR);

reyestrda kiritilgan sana;

xabardor qilish tartibida amalga oshirilayotgan faoliyat turi va faoliyat amalga oshirilayotgan manzil;

xabardor qiluvchilarning faoliyat yuritish holati (amalda, to'xtatilgan, qayta tiklangan, tugatilgan) va sanasi;

xabardor qiluvchilarning faoliyati to'xtatilganligi yoki tugatilganligi asoslari;

xabardor qiluvchilar faoliyatini amalga oshirish uchun qo'yilgan taqiqning qolgan muddati.

54. Xabarnomalar reyestrining zaxira nusxasi "Litsenziya" AT operatorida saqlanishi lozim.

55. Xabardor qiluvchilar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar bazasi vakolatli organ foydalanishi uchun shakllantiriladi va unda xabarnomani yuborishda kiritiladigan barcha ma'lumotlar hamda ilova qilinadigan hujjatlarning elektron nusxalari saqlanadi.

Ushbu ma'lumotlar bazasida xabarnomalar reyestrda kiritilmagan axborotlar mavjud bo'lgan taqdirda, vakolatli organ tomonidan ushbu axborotlar boshqa shaxslarga oshkor qilinishi taqiqlanadi.

7-bob. Vakolatli organlar va ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish va uni ko'rib chiqish tartibi

56. Xabardor qiluvchilar "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining **Qonuni** talablarga muvofiq vakolatli organ hamda uning mansabdor shaxslarining o'z faoliyatiga taalluqli bo'lgan harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilishga haqli.

57. Xabardor qiluvchilar shikoyatni:

hududiy darajadagi vakolatli organga nisbatan — uning yuqori turuvchi organiga;

respublika darajasida vakolatli organga nisbatan ushbu idorada tashkil etilgan Apellyatsiya kengashiga (keyingi o'rinlarda — Apellyatsiya kengashi) taqdim etadi.

58. Yuqori turuvchi vakolatli organ yoki Apellyatsiya kengashi shikoyat bo'yicha u qabul qilgan kundan e'tiboran o'n besh ish kuni ichida qaror qabul qiladi.

Xabardor qiluvchilarning talabiga ko'ra shikoyat ularning ishtirokida ko'rib chiqilishi mumkin.

Bunda yuqori turuvchi vakolatli organ va Apellyatsiya kengashi xabardor qiluvchilarning istagiga ko'ra muhokamani videokonferens-aloqa vositalaridan foydalangan holda o'tkazishni ta'minlashi shart.

Videokonferens-aloqa rejimida shikoyatni ko'rib chiqish uchun texnik va boshqa sharoitlarni ta'minlash vakolatli organning tegishli hududiy bo'linmasiga yuklanadi.

59. Apellyatsiya kengashi yig'ilishi uning a'zolarining uchdan ikki qismi qatnashganda, vakolatli hisoblanadi. Apellyatsiya kengashiga vakolatli organning rahbari yoki uning o'rinbosari raislik qiladi.

Apellyatsiya kengashi yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi vakili kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi.

60. Yuqori turuvchi vakolatli organ yoki Apellyatsiya kengashi shikoyat bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilishga haqli:

qabul qilingan va shikoyat qilinayotgan qarorni o'zgarishsiz qoldirish;

shikoyat qilinayotgan qarorga o'zgartirishlar kiritish;

qarorni bekor qilish va zarur bo'lgan taqdirda, yangi qaror qabul qilish.

61. Shikoyat Apellyatsiya kengashi tomonidan ko'rilayotganda, qarorlar ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi. Shikoyat bo'yicha Apellyatsiya kengashining qarori barcha a'zolar tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Bunda Apellyatsiya kengashi a'zolaridan birortasi ham ovoz berishda betaraf qolishga haqli emas. Apellyatsiya kengashining har bir a'zosi, shu jumladan, rais ham bitta ovozga ega bo'ladi.

Apellyatsiya kengashining yig'ilishlarida ko'rib chiqilgan masalalar va qabul qilingan qarorlar bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi.

Apellyatsiya kengashi yig'ilishi materiallarini tayyorlash va uning bayonnomalari kotib tomonidan rasmiylashtiriladi.

62. Xabardor qiluvchilar shikoyat yuzasidan Apellyatsiya kengashi yoki boshqaruv darajasidagi vakolatli organga nisbatan ulardan yuqori turuvchi organlarning qabul qilgan qarorlari natijasidan norozi bo'lgan taqdirda, belgilangan tartibda sudga shikoyat qilishga haqli.

63. Vakolatli organning qarori yoki hujjati yuzasidan shikoyat qilinganda, shikoyat yuqori turuvchi vakolatli organ yoki Apellyatsiya kengashida ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan e'tiboran tegishli qaror yoki hujjatning amal qilishi va ijro etilishi to'xtatib turiladi, xabardor qiluvchilarning faoliyatini to'xtatish holatlari bundan mustasno.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

64. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

65. Faoliyat uchun belgilangan talablar va shartlar buzilishi bilan bog'liq huquqbuzarlik uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish nazarda tutilishi mumkin.

66. Vakolatli organ xabardor qiluvchilarga nisbatan qo'llagan javobgarlik choralari, shuningdek, xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatni (harakatlarni) tugatish to'g'risidagi ariza sud tomonidan qanoatlantirilmagan taqdirda, xabardor qiluvchilarga keltirgan zararlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qoplaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

67. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari mazkur Nizom talablari ijrosi bo'yicha davlat organlari va boshqa vakolatli organlarning faoliyatini, shu jumladan, "Litsenziya" AT orqali doimiy monitoring qilib boradi.

(67-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-iyuldagi 385-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 14.07.2022-y., 09/22/385/0643-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi yagona
nizomga
1-ILOVA

NAMUNA



O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi
Xabarnoma qabul qilinganligi to'g'risida

TASDIQNOMA
№ 000000

“Oltinsoy Fayz” MChJ

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati

Tasdiqnoma reyestri bo'yicha tartib raqami:
X-0000

STIR (Soliq to'lovchining identifikatsion raqami):
000 000 000

Pochta manzili:

Faoliyat (harakat) amalga oshiriladigan manzil:

Vakolatli organ:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi

Xabarnoma yuborilgan sana: _____



Mazkur tasdiqnomaning haqqoniyligini QR-kodni skanerlash orqali tekshirish mumkin.

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi [yagona nizomga](#)
2-ILOVA

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlash faoliyatining
PASPORTI

1.	Xabarnoma nomi:	Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlashni boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	a) zargarlik buyumlarini, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan boshqa buyumlarni, shuningdek, qimmatbaho toshlarni baholash; b) qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarni baholash, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarni gemmologik tekshirish; v) qimmatbaho metallardan yasalgan laboratoriya idishlaridan, katalizatorlar, katalizator setkalaridan, tarkibida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bo'lgan uskunalaridan, termopar, termorele, termoqarshilikdan foydalanish va ularni saqlash; g) tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan tashqi qoplamalar tayyorlash va/yoki surkash (kimyoviy, elektrokimyoviy, purkash va boshqa usullar bilan); d) tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan moddalarni (tibbiy preparatlar, tuzlar, reagentlar, kimyoviy birikmalar va boshqalarni) ishlab chiqarish, qo'llash, saqlash; e) tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan tish yasashga mo'ljallangan mahsulotlar uchun disklar, elektrodlar, anodlar, kontaktlar va kavsharlarni tayyorlash, ulardan foydalanish, ularni saqlash; yo) tibbiyot, oziq-ovqat, alkogol va vino-arog mahsulotlari ishlab chiqarishda qimmatbaho metallardan, tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan oziq-ovqat qo'shimchalaridan foydalanish; j) qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlarga ishlov berish, ularni sayqallash. Tabiiy olmosdan yasalgan filyerlar, voloklar,

		olmosli uchliklardan, tabiiy olmosdan yasalgan olmosli asbobdan va burg'ilash olmosli asbobidan foydalanish hamda ularni saqlash. Olmosli asbobini rekuperatsiya qilish ishlarini amalga oshirish; z) qimmatbaho metallarni, qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlarni tahlil qilish hamda ularning asillik darajasini nazorat qilish ishlari; i) tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan maishiy texnika, tashkiliy texnika, tibbiyot texnikasi va boshqa buyumlarni qismlarga ajratish, ularga dastlabki ishlov berish, turlarga ajratish, bosma platalarni utilizatsiya qilish; y) uzellarida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bo'lgan asbob-uskunalarini qismlarga ajratish hamda utilizatsiya qilish, shuningdek, tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan asbob-uskunalarini qismlarga ajratishdan va utilizatsiya qilishdan olingan chiqindilarni qayta ishlash korxonalariga topshirish; k) tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan ikkilamchi resurslar, parchalar va chiqindilarni keyinchalik qayta ishlash (affinaj) korxonalariga topshirish uchun to'plash (tayyorlash), qismlarga ajratish, saralash, ularga dastlabki (birlamchi) qayta ishlov berish; l) qimmatbaho metallardan harbiy va/yoki aviatsiya texnikasini ta'mirlashda foydalanish, tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan harbiy va/yoki aviatsiya texnikasi chiqindilarini saqlash va ulardan foydalanish; m) harbiy va/yoki aviatsiya texnikasidan tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan radiometallar va elementlarni ajratib olish, harbiy va/yoki aviatsiya texnikasining tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan chiqindilarini to'plash va qayta ishlash korxonalariga topshirish; n) tarkibida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar bo'lgan buyumlar hamda predmetlarni ko'rgazmalarga qo'yish, saqlash va restavratsiya qilish; o) qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik buyumlari hamda boshqa buyumlarni, tarkibida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bo'lgan predmetlarni (davlat organlarining qarorlariga ko'ra davlat daromadiga o'tkazilgan) restavratsiya qilish (ta'mirlash); p) tarkibida kumush mavjud bo'lgan va yorug'likka ta'sirchan materiallardan, kinofotorentgen-plyonkalar, kinofotorentgen-plastinkalar va tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan xuddi shunday materiallardan foydalanish.
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar):	Moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasini belgilash palatasi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	"Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma'lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili;

		v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzillari, kadastr raqami); e) amalga oshirish rejalashtirilayotgan faoliyat turi; yo) o'lchash vositalari to'g'risidagi ma'lumot (elektron yoki tahliliy tarozi va toshlar (har-xil og'irlikdagi)).
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	Favqulodda vaziyatlar vazirligi; Davlat soliq qo'mitasi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlarni amalga oshirganda, belgilangan talablarga mos mulkka egalik qilish huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo'lgan binolar va inshootlar, ishlab chiqarish maydonlari mavjudligi; b) qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza, uskunalar va boshqa texnika vositalarining mavjudligi; v) tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan xomashyo bilan ishlaganda, ishlab chiqarish maqsadlarida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan foydalanilganda, qimmatbaho metallardan aviatsiya va/yoki harbiy texnikada foydalanilganda:* qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlarni amalga oshirishga qo'yiladigan talablarni tartibga soluvchi normativ-texnik hujjatlarning mavjudligi; xabardor qiluvchilar tomonidan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni olish, sarflash, hisobini yuritish va saqlash yuzasidan talablarga majburiy rioya qilinishi, qimmatbaho metallarning chiqindi va parchalarini qayta ishlash korxonalariga topshirish uchun tayyorlash, qadoqlash, tashish va qabul qilish-topshirish shartlariga majburiy rioya qilinishi; vakolatli organ tomonidan belgilagan muddatlar va shakllar bo'yicha qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar harakati haqidagi hisobotlar taqdim etish; g) tarkibida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bo'lgan uskunalar bilan ishlaganda: tarkibida qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bo'lgan uskunalar bilan ishlarni amalga oshirishga qo'yiladigan talablarni tartibga soluvchi normativ-texnik hujjatlarning mavjudligi; qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni olish, sarflash, hisobini yuritish va saqlash yuzasidan talablarga ariza beruvchi tomonidan majburiy rioya qilinishi, qimmatbaho metallarning chiqindi va parchalarini qayta ishlash korxonalariga topshirish

		uchun tayyorlash, qadoqlash, tashish va qabul qilish-topshirish shartlariga majburiy rioya qilish; d) ijtimoiy-madaniy maqsadlarda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan foydalanilganda: ijtimoiy-madaniy maqsadlarda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlarni amalga oshirish yuzasidan talablarni tartibga soluvchi normativ-texnik hujjatlarning mavjudligi; qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni olish, hisobini yuritish va saqlash yuzasidan talablarga ariza beruvchi tomonidan majburiy rioya qilish.
10.	Izoh:	Har bir faoliyat turi bo'yicha alohida xabarnoma yuboriladi. <i>* Qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi [yagona nizamga](#)
3-ILOVA

Qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlari hamda boshqa buyumlar ishlab chiqarish faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan zargarlik buyumlari hamda boshqa buyumlar ishlab chiqarish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	a) shaxsiy buyurtma asosida aholi tomonidan taqdim etilgan materiallardan zargarlik buyumlari ishlab chiqarish va qimmatbaho metallardan yasalgan zargarlik buyumlarini ta'mirlash. O'z ishlab chiqarishidan hosil bo'lgan chiqindilarni mexanik, kimyoviy va metallurgiya jarayonlarini qo'llash yordamida qayta ishlash va ularning tarkibidan qimmatbaho metallarni ajratib olish (<i>aholi buyurtmasiga asosan zargarlik buyumlari yasashda hosil bo'lgan chiqindilarni qayta ishlash huquqiga ega emas</i>); b) zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish. O'z ishlab chiqarishidan hosil bo'lgan chiqindilarni mexanik, kimyoviy va metallurgiya jarayonlarini qo'llash yordamida qayta ishlash va ularning tarkibidan qimmatbaho metallarni ajratib olish (<i>aholi buyurtmasiga asosan zargarlik buyumlari yasashda hosil bo'lgan chiqindilarni qayta ishlash huquqiga ega emas</i>).
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar):	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	"Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma'lumotlar:	<i>Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun:</i>

		a) YTTning: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; b) faoliyatini amalga oshirish joyi (manzili, kadastr raqami); v) yashash manzili; g) mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); d) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); e) amalga oshirish rejalashtirilayotgan faoliyat turlari (yoki ularning qismlari); yo) o'lchash vositalari to'g'risidagi ma'lumot (elektron yoki tahliliy tarozi va toshlar (har xil og'irlikdagi); <i>Yuridik shaxslar uchun:</i> j) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; z) pochta hamda elektron pochta manzili; i) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); y) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); k) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzil(lar)i, kadastr raqami); l) amalga oshirish rejalashtirilayotgan faoliyat turlari (yoki ularning qismlari); m) o'lchash vositalari to'g'risidagi ma'lumot (elektron yoki tahliliy tarozi va toshlar (har xil og'irlikdagi)).
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	Favqulodda vaziyatlar vazirligi; Adliya vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi

	to'lanadigan yig'im miqdori:	
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan zargarlik va boshqa buyumlarni ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun talab va shartlarga mos mulk huquqi yoki boshqa huquq asosida tegishli bo'lgan binolar, inshootlar, ishlab chiqarish maydonlari va sharoitlarning mavjudligi; b) zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza, uskunalar va boshqa texnika vositalarining mavjudligi; v) quyidagi qo'shimcha talab va shartlarga rioya etish: <i>O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan va/yoki nizom jamg'armasida kamida 50 foiz davlat ulushiga ega bo'lgan yuridik shaxslar uchun:</i> faoliyat ko'rsatadigan joyda yong'in xavfsizligi chora-tadbirlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, texnik mustahkamlik yo'riqnomalari, materiallar, xomashyo va tayyor buyumlarni saqlash qoidalariga belgilangan talablarga muvofiq rioya etilishini ta'minlash; qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlash bo'yicha talablarni tartibga soluvchi texnik va normativ hujjatlarning mavjudligi (qimmatbaho metallarni sarflash, hisobga olish va saqlash bo'yicha obyekt ichidagi yo'riqnomalar, texnik qaydlar, marshrut texnologiyalari xaritasi, bichish xaritalari, barcha operatsiyalar uchun operatsiyalar bo'yicha normativlar, qimmatbaho metallarni sarflashning batafsil operatsiya normalari va jamlangan normalari); zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish uchun malakali xodimlarning mavjudligi; xabardor qiluvchining qimmatbaho metallarni olish, sarflash, hisobga olish, saqlash tartibi, qimmatbaho metallarni tayyorlash, qadoqlash, transportirovka qilish, ularning parchalari va chiqindilarini qayta ishlash korxonalariga topshirish tartibiga rioya qilish bo'yicha talablarni so'zsiz bajarishi;* qimmatbaho metallarning kelib tushishi, sarflanishi va xomashyoda, yarim tayyor mahsulotlar, tugallanmagan ishlab chiqarishda va tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan buyumlarda ularning qoldiqlarini, shuningdek, ushbu boyliklar chiqindilari va yo'qotishlarning qat'iy hisobini yuritish; xomashyoda, yarim tayyor mahsulotlar, tugallanmagan ishlab chiqarishda va tarkibida qimmatbaho metallar bo'lgan buyumlarda, barcha saqlash joylari hamda bevosita ishlab

		chiqarishda ularning qoldiqlarini har chorakda xatlovdan o'tkazish; qimmatbaho metallar hosil bo'ladigan joylar va manbalarda ularning barcha turdagi parchalari va chiqindilarini to'liq to'plash, hisobga olish hamda saqlashni ta'minlash; vakolatli organga belgilanadigan shakllar bo'yicha va muddatlarda qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlar harakati to'g'risida hisobotlarni taqdim etish; <i>O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilmaydigan va/yoki nizom jamg'armasida kamida 50 foiz davlat ulushiga ega bo'lmagan yuridik shaxslar uchun:</i> belgilangan talablarga muvofiq yong'in xavfsizligi, sanitariya qoidolari, normalari, gigiyena normativlari, texnik mustahkamlik bo'yicha yo'riqnomalar mavjudligi; faoliyat joyida mustaqil ravishda ishlab chiqilgan norma va qoidalar asosida materiallar, xomashyo va tayyor buyumlarni hisobga olish, sarflash, saqlash; qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan ishlash uchun mustaqil ravishda ishlab chiqilgan normativ-texnik hujjatlarning mavjudligi; <i>yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun:</i> xabardor qiluvchi qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni sarflash, hisobga olish va saqlash bo'yicha mustaqil ishlab chiqilgan tartibga rioya qilishi shart; g) yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun maxsus shartlar:* xabarnoma qabul qilinganligi haqidagi tasdiqnomada xabardor qiluvchiga ishlab chiqaruvchining shaxsiy tamg'asi beriladi (lotin alifbosining uchta katta harf belgilari). Shaxsiy tamg'ani berishda avval ishlatilgan harflar kombinatsiyasini boshqa xabardor qiluvchilarga takroran berishga yo'l qo'yilmaydi; shaxsiy tamg'ani tayyorlash uchun tadbirkorlik subyekti mustaqil ravishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi "Davlat belgisi" davlat unitar korxonasiga xabarnoma qabul qilinganligi haqidagi tasdiqnomaga bilan murojaat qiladi; shaxsiy tamg'a xabarnoma yuborilgandan keyin 90 kun ichida Davlat asillik darajasini belgilash palatasida ro'yxatdan o'tkazilishi lozim.
10.	Izoh:	Ishlab chiqaruvchining shaxsiy tamg'asini mexanik (zarb) yoki lazer usullari yordamida tushirishga ruxsat etiladi. Bunda

	zargarlik buyumlariga lazer usullari yordamida tushirilgan shaxsiy tamgʻaning haqiqiyligini tasdiqlash ishlab chiqaruvchining zimmasiga yuklanadi. Tadbirkorlik subyekti zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish boʻyicha faoliyatni oʻz xohishiga koʻra tugatganda va maʼlum bir vaqtdan soʻng faoliyatni qayta tiklashni istaganda, ishlab chiqaruvchining shaxsiy tamgʻasi umumiy asoslarga koʻra beriladi. qimmatbaho metallardan va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlarni ishlab chiqaruvchilar mustaqil taqdim etadigan belgilangan namunadagi asillik darajasi belgilari quyidagi shakllarda boʻlishi lozim: <i>* Qoʻpol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>		
T/r	Qimmatbaho metall turi	Asillik darajasi belgisining shakli*	Qonunchilik hujjatlarida belgilangan asillik darajalari
1.	Oltin		375, 500, 585, 750, 875, 916, 958, 999.
2.	Kumush		800, 875, 925, 960, 999
3.	Platina		850, 900, 950, 999
4.	Palladiy		500, 850, 999

* Asillik darajasi belgisining uzunligi: 1,5 – 2 mm, asillik darajasi belgisining maksimal bo'yi – 1 mm.

Jismoniy shaxslarning yakka tartibdagi buyurtmalari bo'yicha 583 (besh yuz sakson uchinchi) asillik darajali oltindan zargarlik va boshqa buyumlarni ushbu shaxslarga tegishli 583 (besh yuz sakson uchinchi) asillik darajasiga ega bo'lgan oltindan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlardan yasashga hamda realizatsiya qilishga yo'l qo'yiladi.”;

(3-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi [yagona nizomga](#)
4-ILOVA

Zargarlik buyumlarini hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan boshqa buyumlarni sotish faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Zargarlik buyumlarini hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan boshqa buyumlarni sotish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	a) qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik buyumlari va boshqa buyumlar, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar bilan chakana savdo qilish (shu jumladan, xorijiy davlatlardan sotish uchun olib kelingan), qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik buyumlari va boshqa buyumlar bilan vositachilik savdosi;

		b) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (onlayn-do‘konlardan) foydalangan holda, qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik buyumlari va boshqa buyumlarning chakana savdosi; v) qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik buyumlari va boshqa buyumlar bilan bojsiz savdo zonalarida chakana savdo qilish (duty free); g) qimmatbaho metallar, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar hamda ulardan yasalgan buyumlarni sotib olish, qimmatbaho metallarning parchalari va chiqindilarini sotib olish; d) qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik buyumlari va boshqa buyumlar, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar bilan ulgurji savdo qilish (shu jumladan, xorijiy davlatlardan sotish uchun olib kelingan).
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar):	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasi nazorati inspeksiyasi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma’lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag‘i, bank kodi); d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzil(lar)i, kadastr raqami); e) o‘lchash vositalari to‘g‘risidagi ma’lumot (elektron yoki tahliliy tarozi va toshlar (har xil og‘irlikdagi)).
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma’lumotlar tekshirilishi lozim bo‘lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma’lumotlari):	Adliya vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan binolar va inshootlarning mavjudligi;

		b) qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan zargarlik va boshqa buyumlar bilan savdo qilish uchun o‘lchash vositalarining mavjudligi; v) zargarlik buyumining tamg‘asida belgilangan darajaga mos keladigan ashyolarni sotish.*
10.	Izoh:	Har bir faoliyat yuritish turi va manziliga (filialiga) alohida xabarnoma yuboriladi. Zargarlik buyumlari va qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan boshqa buyumlarni sotish faoliyati yo‘nalishida onlayn-do‘kon shaklidagi tadbirkorlik subyektlari uchun mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan binolar va inshootlarning hamda o‘lchash vositalarining mavjudligi talab etilmaydi. * <i>Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(4-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga
5-ILOVA

Investitsiya maslahatchisi faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Investitsiya maslahatchisi faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi:	Investitsiya maslahatchisi faoliyati
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar):	O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma’lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag‘i, bank kodi);

		d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzillari, kadastr raqami); e) yuridik shaxs rahbarining: pasport raqami, seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHTSHIR; 1-toifali malaka sertifikatini raqami va sanasi; yo) maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar to'g'risida ma'lumot: pasport raqami, seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHTSHIR; malaka sertifikatini raqami va sanasi.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	Ichki ishlar vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; Adliya vazirligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) 50 mln so'm miqdorida o'z mablag'lari (sarmoyasi) bo'lishi lozim; b) vakolatli organ tomonidan belgilangan dasturiy-texnik kompleksga qo'yiladigan talablarning dasturiy ta'minoti va texnik vositalari muvofiqligi hamda qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari va fond birjalari bilan o'zaro elektron aloqaga tayyorligi; v) xabardor qiluvchida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarning ichki hisobini yuritish vazifasini bajaruvchi kamida bitta xodimning bo'lishi hamda ichki nazoratni tashkil etish va amalga oshirish vazifasini bajaruvchi kamida bitta xodim (nazoratchi) bo'lishi;* g) quyidagi shaxslar xabardor qiluvchining rahbari bo'lishi mumkin emas:* moliya-iqtisod, yuridik, matematika yoki axborot texnologiyalari mutaxassisliklaridan kamida bittasi bo'yicha oliy ma'lumotli bo'lmagan shaxslar;

		qimmatli qog‘ozlar bozoridagi kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlarda, fond birjalarida yoxud iqtisodiy, moliyaviy va yuridik faoliyat sohaslarida, axborot texnologiyalari sohasida yoki ko‘rsatib o‘tilgan yo‘nalishlar bo‘yicha davlat boshqaruv organlaridagi ishda kamida ikki yillik ish stajiga ega bo‘lmagan shaxslar; iqtisodiyot sohasidagi jinoyat uchun yoki boshqaruv tartibiga qarshi jinoyat uchun olib tashlanmagan sudlanganlikka ega bo‘lgan shaxslar; yuridik shaxs bankrot deb e‘tirof etilgan paytda va e‘tirof etilgan paytdan boshlab ikki yil o‘tmagan bo‘lsa, yakka holda ijro etuvchi organ funksiyalarini bajargan yoki kollegial ijro etuvchi organ tarkibiga kirgan shaxslar; d) xabardor qiluvchining mutaxassislari, mansabdor shaxslari va nazoratchisining vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan malaka talablariga muvofiqligi; e) o‘zining dasturiy vositasi mavjud bo‘lgan taqdirda mualliflik huquqini tasdiqlaydigan guvohnomaning mavjudligi.
10.	Izoh:	* <i>Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar</i>

(5-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli [qarori](#) tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi [yagona nizomga](#)
6-ILOVA

Maktabdan tashqari ta’lim faoliyatining

PASPORTI

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

1.	Xabarnoma nomi:	Maktabdan tashqari ta’lim faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to‘g‘risida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi:	Nodavlat maktabdan tashqari ta’lim, shu jumladan, chet tillarini o‘rgatish faoliyati
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi vakolatli organ(lar):	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma’lumotlar:	<i>Yakka tartibdagi tadbirkor uchun:</i> a) YTTning:

familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa);

pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami;

JSHSHIR;

b) yashash manzili;

v) mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda);

g) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi);

Yuridik shaxs uchun:

d) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR;

e) pochta va elektron pochta manzili;

yo) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda);

j) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi);

Yakka tartibdagi tadbirkor va yuridik shaxs uchun:

z) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzil(lar)i, kadastr raqami), faqat masofaviy (onlayn) ta'limga asoslangan nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchilar bundan mustasno;

i) ta'lim yo'nalishlari, kurslar va kasblar ro'yxati;

y) pedagog kadrlar (shu jumladan xorijiy o'qituvchilar) haqida ma'lumot:

familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud bo'lgan taqdirda);

pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami;

JSHSHIR;

telefon raqami;

ma'lumot to'g'risidagi diplom yoki xorijiy davlatda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqidagi guvohnoma raqami va sanasi;

chet tillarga o'qitgan hollarda, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan beriladigan bilimlar darajasi va

		chet tilini bilish va egallab olganlik darajasi to'g'risidagi davlat namunasidagi malaka sertifikatining raqami va sanasi yoki yetakchi xalqaro va baholash tizimlarining amaldagi sertifikatlari PDF nusxasi (IELTS, CEFR, TOEFL IBT); k) o'quv rejasi va dasturlarining elektron nusxalari; l) davlat yong'in nazorati organlari tomonidan mavjud binolar va xonalarning yong'in xavfsizligi talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosaning sanasi va raqami, faqat masofaviy (onlayn) ta'limga asoslangan nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchilar bundan mustasno; m) sanitariya-epidemiologiya xizmati organining sanitariya-gigiyena normalariga muvofiqlik to'g'risidagi xulosasining sanasi va raqami, faqat masofaviy (onlayn) ta'limga asoslangan nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchilar bundan mustasno.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) o'quv rejasi va dasturi Maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lishi; b) ta'lim faoliyati yuritiladigan binoga (xonalarga) mulkiy yoki boshqa ashyoviy huquqning mavjudligi (ushbu talab faqat masofaviy (onlayn) ta'limga asoslangan nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi); v) har bir to'garak rahbari o'quv qo'llanma bilan ta'minlanganligi; g) Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining axborot tizimiga quyidagi ma'lumotlar to'g'ri va ishonchli kiritilishini ta'minlash: ta'lim tashkiloti to'g'risida;

ta'lim oluvchilar to'g'risida;

pedagog xodimlar, to'g'arak rahbarlari, trenerlar to'g'risida;

ta'lim jarayoni to'g'risida;

d) ta'lim oluvchilar bilan o'zaro munosabatlar shartnoma asosida amalga oshirilishi;*

e) ta'lim oluvchilarning minimal va maksimal soni:

individual (yakka) tarzda;

to'g'arakda — 40 nafargacha;

yo) pedagog xodimlarning ilmiy salohiyati darajasi:

oliy ma'lumotli — 50%;

o'rta maxsus ma'lumotli — 40%;

o'rta ma'lumotli — 10%.

j) ta'lim tashkilotining hududi:

devor yoki panjara bilan o'ralganligi;

tungi yoritgichlar o'rnatilganligi;

ichimlik suv va kanalizatsiya bilan ta'minlanganligi.

z) ta'lim tashkilotidagi xonalar uchun ajratiladigan minimal maydon o'lchami:

dars mashg'ulotlari uchun:

to'g'arak mashg'ulotlari xonasi — 15 m²;

ustaxona — 30 m² (agar mavjud bo'lsa);

studiya va individual mashg'ulotlar xonasi umumiy maydoni — 20 m²(agar mavjud bo'lsa);

umumnazariy va umumta'lim laboratoriya xonalari — 25 m²(agar mavjud bo'lsa);

i) o'quv auditoriyalarida ta'lim faoliyati uchun yaratilgan sharoitlarga qo'yiladigan minimal talablar:

elektron yoki oddiy doska — 1 dona;

		proyektor — 1 dona; auditoriyaning yoritilish darajasi — 400 lyuks; y) O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitar vrachining 2013-yil 23-yanvardagi 0307-13-son Sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlari bilan tasdiqlangan Maktabdan tashqari ta’lim muassasalarining qurilmalari va ta’minotiga qo‘yiladigan gigiyenik talablarga muvofiq bo‘lishi; k) O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitar vrachining 2009-yil 4-iyundagi 0266-09-son Nogironlar va aholining imkoniyati cheklangan katta yoshdagi va bolalar guruhlari tomonidan foydalaniladigan turar-joy va jamoat binolarini loyihalashtirish va qurishning sanitariya normalari va qoidalariga muvofiq bo‘lishi; l) maktabdan tashqari ta’lim bo‘yicha ta’lim olganlik to‘g‘risidagi guvohnoma berilishi; m) chet tillarga o‘qitgan hollarda, pedagog kadrlarda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan beriladigan bilimlar darajasi va chet tilini bilish va egallab olganlik darajasi to‘g‘risida davlat namunasidagi malaka sertifikat yoki yetakchi xalqaro va baholash tizimlarining amaldagi sertifikat (IELTS, CEFR, TOEFL IBT) mavjud bo‘lishi.*
10.	Izoh:	* <i>Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(6-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga
7-ILOVA

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi:	Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash faoliyati
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi vakolatli organ(lar):	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali

6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma'lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzil(lar)i, kadastr raqami), sayyor shaklda va masofaviy (onlayn) ta'limga asoslangan nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchilar bundan mustasno; e) ta'lim yo'nalishlari, kurslar va kasblar ro'yxati; yo) pedagog kadrlar haqida ma'lumot: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; yashash joyining manzili; telefon raqami; ma'lumot to'g'risidagi diplom yoki xorijiy davlatda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqidagi guvohnoma raqami va sanasi; j) o'quv rejasi va dasturlarining elektron nusxalari; z) davlat yong'in nazorati organlari tomonidan mavjud binolar va xonalarning yong'in xavfsizligi talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosaning sanasi va raqami, faqat masofaviy (onlayn) ta'limga asoslangan nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchilar bundan mustasno; i) sanitariya-epidemiologiya xizmati organining sanitariya-gigiyena normalariga muvofiqlik to'g'risidagi xulosasining sanasi va raqami, faqat masofaviy (onlayn) ta'limga asoslangan nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchilar bundan mustasno.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi;

		O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) belgilangan tartibda tasdiqlangan o‘quv rejasi va dasturining mavjudligi; b) ta’lim faoliyati yuritiladigan binoga (xonalarga) mulk yoki boshqa ashyoviy huquqning mavjudligi (ushbu talab sayyor shaklda va masofaviy (onlayn) ta’limga asoslangan nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi); v) quyidagi o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlar hamda axborot-resurs bazasi bilan ta’minlanganligi: ta’lim oluvchilarning fanlar kesimida o‘quv adabiyotlari (o‘quv qo‘llanmalari) bilan ta’minlanganligi — har 2 nafar ta’lim oluvchiga 1 to‘plam; ta’lim oluvchilarning tavsiyaviy xususiyatga ega o‘quv adabiyotlari (o‘quv-metodik qo‘llanmalar) bilan ta’minlanganligi — har 6 nafar ta’lim oluvchiga 1 to‘plam; elektron darslik va boshqa o‘quv materiallari bilan ta’minlanganligi — har bir ta’lim oluvchilarga; har bir o‘qituvchiga o‘quv qo‘llanmasi va qo‘shimcha adabiyotlar; g) Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining axborot tizimiga quyidagi ma’lumotlarni to‘g‘ri va ishonchli kiritilishini ta’minlash: ta’lim tashkiloti to‘g‘risida; ta’lim oluvchilar to‘g‘risida; pedagog xodimlar to‘g‘risida; ta’lim jarayoni to‘g‘risida; d) ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro munosabatlar shartnoma asosida amalga oshirilishi;*

e) ta'lim oluvchilarning minimal va maksimal soni:

individual (yakka) tarzda;

kichik guruhda — 20 nafargacha;

katta guruhda — 30 nafargacha;

yo) o'qituvchilarning ilmiy salohiyat darajasi:

institut shakli uchun:

ilmiy darajaga va (yoki) ilmiy unvonga ega bo'lgan
o'qituvchilarning minimal ulushi — 50%;

oliy ma'lumotli o'qituvchilarning minimal ulushi — 50%;

fakultet (bo'lim, markaz) shakli uchun:

ilmiy darajaga va (yoki) ilmiy unvonga ega bo'lgan
o'qituvchilarning minimal ulushi — 40%;

oliy ma'lumotli o'qituvchilarning minimal ulushi — 60%;

kurs shakli uchun o'qituvchilarning tayanch ma'lumoti
(mutaxassisligi, ixtisosligi) ular mashg'ulot olib boradigan
modullarga muvofiq bo'lishi;

j) asosiy shtatdagi o'qituvchilar ulushi — 15%;

z) faoliyat amalga oshiriladigan joyning devor yoki panjara
bilan o'ralganligi;

tungi yoritgichlar o'rnatilganligi;

ichimlik suvi va kanalizatsiya bilan ta'minlanganligi;

i) ta'lim tashkilotidagi xonalar hamda har bir ta'lim oluvchi
yoki xodimlar uchun ajratiladigan minimal maydon o'lchami:

dars mashg'ulotlari uchun:

o'quv auditoriyalari — 20 m²;

umumnazariy va umumta'lim laboratoriya xonalar — 25 m²;

texnik va maxsus laboratoriyalar — 30 m²;

alohida kabinalarga ajratilgan fonzallar — 12 m²;

		y) o‘quv auditoriyalarida ta’lim faoliyati uchun yaratilgan sharoitlarga qo‘yiladigan minimal talablar: elektron yoki oddiy doska — 1 dona; projektor — 1 dona; auditoriyaning yoritilish darajasi — 400 lyuks; k) O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitar vrachining 2016-yil 6-maydagi 0330-16-son Sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlari bilan tasdiqlangan Oliy o‘quv yurtlarini loyihalashtirish, qurish, jihozlash va ulardan foydalanishga qo‘yiladigan gigiyenik talablarga muvofiq bo‘lishi; l) O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitar vrachining 2009-yil 4-iyundagi 0266-09-son Nogironlar va aholining imkoniyati cheklangan katta yoshdagi va bolalar guruhlari tomonidan foydalaniladigan turar-joy va jamoat binolarini loyihalashtirish va qurishning sanitariya normalari va qoidalariga muvofiq bo‘lishi; m) qayta tayyorlash bo‘yicha ta’lim olganlik to‘g‘risidagi diplom hamda malaka oshirish bo‘yicha ta’lim olganlik to‘g‘risida sertifikat berilishi.
10.	Izoh:	* <i>Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(7-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga
8-ILOVA

Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarining malakasini oshirish faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarining malakasini oshirish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to‘g‘risida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	Avtomototransport vositalari va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarining malakasini oshirish faoliyati
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi vakolatli organ(lar):	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali

6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma'lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisob varag'i, bank kodi); d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzil(lar)i, kadastr raqami); e) o'qituvchi va amaliy boshqaruv instruktorlari haqida ma'lumot: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHTSHIR; ma'lumot to'g'risidagi diplom yoki xorijiy davlatda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqidagi guvohnoma raqami va sanasi; qayta tayyorlashdan o'tganligi to'g'risida diplom (agar mavjud bo'lsa); yo) o'quv rejasi va dasturlarining elektron nusxalari; j) davlat yong'in nazorati organlari tomonidan mavjud binolar va xonalarning yong'in xavfsizligi talablariga muvofiqligi to'g'risida berilgan xulosaning sanasi va raqami; z) davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati organining sanitariya-gigiyena normalariga muvofiqlik to'g'risidagi xulosasining sanasi va raqami.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi.

8.	Xabarnomani yuborish uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) ta’lim jarayonini tashkil etish uchun o‘quv rejasi va dasturining mavjudligi; b) ta’lim faoliyati yuritiladigan binoga (xonalarga) mulk yoki boshqa ashyoviy huquqning mavjudligi; v) har bir ta’lim oluvchining o‘quv qo‘llanma va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ta’minlanganligi; g) Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining axborot tizimiga quyidagi ma’lumotlar to‘g‘ri va ishonchli kiritilishini ta’minlash:* ta’lim tashkiloti to‘g‘risida; ta’lim oluvchilar to‘g‘risida (har yangi guruh tashkil etilganda yangilab borilishi lozim); pedagog xodimlar hamda h?ydovchi-yo‘riqchilar to‘g‘risida; ta’lim jarayoni to‘g‘risida; d) ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro munosabatlar shartnoma asosida amalga oshirilishi;* e) ta’lim oluvchilarning maksimal soni guruhda — 25 nafargacha; yo) pedagog xodimlarning minimal soni: avtotransport mutaxassisligi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega o‘qituvchilar soni — 25 nafar ta’lim oluvchiga 1 shtat birligi; shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish yoki tibbiyot ixtisosligi bo‘yicha oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumotga ega yo‘riqchilar (paramediklar) soni — 1 nafar; j) ta’lim tashkiloti va uning hududi uchun talablar: tungi yoritgichlar o‘rnatilganligi; ichimlik suv va kanalizatsiya bilan ta’minlanganligi; hojatxona har biri kamida 40 m² maydonga ega bo‘lgan va bitta hududda joylashgan kamida ikkita xonaning (auditoriya) mavjudligi;

		yo'l harakati qoidalari, yo'l harakati xavfsizligi asoslari va birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha xonaning mavjudligi; ta'lim oluvchilarning bilimlarini yakuniy test sinovlaridan o'tkazish uchun kamida 10 dona kompyuter texnikasi bilan jihozlangan alohida xonaning mavjudligi; z) kompyuter texnikalari Internet jahon axborot tarmog'iga ulanganligi yoki hududda Wi-Fi zonalar tashkil etilganligi; i) o'quv auditoriyalarida ta'lim faoliyati uchun yaratilgan sharoitlarga qo'yiladigan minimal talablar: o'lchami 1500x1000 mm, 1500x2000 mm yoki 2500x2000 mm bo'lgan elektron yoki oddiy doska — 1 dona; proyektor yoki ekran o'lchami kamida 43 dyuym bo'lgan televizor — 1 dona; auditoriyaning yoritilish darajasi — 400 lyuks; y) O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitar vrachining 2009-yil 4-iyundagi 0266-09-son Nogironlar va aholining imkoniyati cheklangan katta yoshdagi va bolalar guruhlar tomonidan foydalaniladigan turar-joy va jamoat binolarini loyihalashtirish va qurishning sanitariya normalari va qoidalariga muvofiq bo'lishi; k) avtotransport vositalari haydovchilarining malaka oshirgani to'g'risida sertifikat berilishi.
10.	Izoh:	* <i>Qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar</i>

(8-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi **yagona nizamga**
9-ILOVA

Yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	Yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish

3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi vakolatli organ(lar):	O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	"Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma'lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzillari, kadastr raqami); e) faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxsning (rahbarning) tegishli yo'nalish bo'yicha oliy ma'lumotga, "muhandislik" yo'nalishi bo'yicha kamida uch yil ish staji va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lganligi to'g'risida ma'lumotlar: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport raqami, seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHTSHIR; telefon raqami; ma'lumot to'g'risidagi diplom yoki xorijiy davlatda ta'lim olganlik haqidagi hujjatni tan olish to'g'risidagi guvohnoma raqami va sanasi; ishlar rahbarining tegishli ixtisoslik bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgani yoki malaka oshirganligi to'g'risidagi hujjatning (sertifikat, guvohnoma va boshqa) PDF yoki JPEG formatdagi nusxasi; yo) faoliyat bilan shug'ullanuvchi ish bajaruvchilarning ma'lumoti: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport raqami, seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHTSHIR;

		telefon raqami; ma'lumot to'g'risidagi diplom yoki xorijiy davlatda ta'lim olganlik haqidagi hujjatni tan olish to'g'risidagi guvohnoma raqami va sanasi ish bajaruvchilarning tegishli ixtisoslik bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgani yoki malaka oshirganligi to'g'risidagi hujjatning (sertifikat, guvohnoma va boshqa) PDF yoki JPEG formatdagi nusxasi (kamida 2 nafar xodimning ma'lumotlari kiritiladi).
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) yuridik shaxsning doimiy shtatida elektronika va asbobsotlik, informatika va axborot texnologiyalari va elektrotexnika sohasida "muhandislik" yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga, shuningdek, ushbu yo'nalishlar bo'yicha kamida uch yil ish stajiga hamda yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishlari bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan ishlar rahbarining mavjud bo'lishi; b) ishlar rahbari tegishli ixtisoslik bo'yicha har to'rt yilda kamida bir marotaba maxsus tayyorgarlikdan o'tib malakasini oshirishi va buni tasdiqlovchi tegishli hujjatga ega bo'lishi; v) yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish yuzasidan topshirilgan obyektlar hisobini (reyestrini) olib borish va ularni ishlatishning butun davrida loyihalarning va boshqa hujjatlarning (yoki ularning nusxalarining) saqlanishini ta'minlashi*; g) ish bajaruvchilar quyidagi tegishli malaka, kasb-hunar, texnik ma'lumot(ga) yoki yo'nalish bo'yicha maxsus kurslarni tugatganligi to'g'risida sertifikatga ega bo'lishlari shart**: yong'inni avtomatik tarzda o'chirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha — qo'lda elektr payvandlovchi (gaz bilan

payvandlovchi) yoki sanitariya-texnik uskunalarni montaj qiluvchi 4-razryaddan past bo'lmashligi;

yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishi bo'yicha — elektronika va elektrotexnika sohasida 3-razryaddan past bo'lmashligi;

d) yuridik shaxs doimiy shtatida bo'lgan yoki ayrim ishlarni bajarish uchun o'zaro shartnoma tuzish orqali jalb etilayotgan subpudrat tashkiloti mutaxassisning tegishli kasb-hunar yoki texnik ma'lumoti va malakasi bo'yicha razryadini ko'rsatib o'tishi;

e) xabardor qilish tartibidagi faoliyatni amalga oshirish uchun quyidagi moddiy-texnik baza, asbob-uskunalar va boshqa texnik vositalarning mavjud bo'lishi:**

kombinatsiyalashtirilgan pribor (qurilma markasi ko'rsatilsin).

megommetr (qurilma markasi ko'rsatilsin);

shumomer (qurilma markasi ko'rsatilsin);

elektr kavsharlagich (elektropayalnik);

elektr perforator;

elektr pirmadasta (elektrodrel);

chilangar asboblari to'plami;

elektr montaj asboblari to'plami;

montaj qiluvchining kaskasi;

montaj qiluvchining belbog'i;

narvon;

ikki yoqqa ochiladigan narvon;

kompressor (yong'in avtomatik tarzda o'chirish faoliyati uchun tatbiq etiladi);

loyiha-smeta hujjatlarini saqlash uchun seyf;

20 kv.m.dan kam bo'lmagan xizmat xonasi;

20 kv.m.dan kam bo'lmagan asbob-uskunalar va texnik vositalarni saqlash uchun xona yoki maxsus ajratilgan joy.

Bunda o'ldash vositalari metrologik tekshiruv (qiyoslash) natijalari bo'yicha muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lishi hamda ushbu sertifikat muddatlari amalda bo'lishi lozim;

yo) xabardor qiluvchi tomonidan yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyati turi bilan shug'ullanishda, xabardor qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlariga, normativ hujjatlar va standartlar talablariga rioya etishi va quyidagi texnik hujjatlarning mavjud bo'lishi:

RDPB 01-001:2007 "Avtomatik yong'in o'chirish qurilmalari. O'rnatish talablari. Ishlarni bajarish va qabul qilish qoidalari";

RDPB 01-002:2007 "Yong'indan darak berish qurilmalari. O'rnatish talablari. Ishlarni bajarish va qabul qilish qoidalari";

RDPB 01-003:2008 "Yong'in avtomatikasi qurilmalari. Texnik xizmat ko'rsatish va rejali- ogohlantiruvchi ta'mirlash ishlari";

RDPB 01-004:2010 "Yong'in o'chirish qurilmasining, yong'in va qo'riqlash xabar joylarining grafik shartli belgilanishi";

SHNK 2.04.09-2007 "Bino va inshootlarning yong'in avtomatikasi";

j) ishlarni bajarish vaqtida ishlatiladigan mahsulotlar va materiallar loyihaning o'ziga xos xususiyatlariga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq hamda tegishli sertifikatlar va texnik pasportlarga ega bo'lishi;

z) xabardor qiluvchi tomonidan obyektlarda o'rnatilgan yong'inni avtomatik tarzda o'chirish, yong'in signalizatsiya qurilmalari to'g'risidagi axborotlarning, shuningdek, obyektning qo'riqlash va uning xavfsizligini ta'minlash tizimi to'g'risida xabardor qilish faoliyatini amalga oshirish jarayonida ma'lum bo'lib qolgan boshqa ma'lumotlarni muhofaza qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning ko'rilishi;

i) qurilmalarni montaj qilish jarayonida buyurtmachi va Davlat yong'in nazorati organlari bilan kelishmasdan, loyihaviy yechimlar yoki ko'rik dalolatnomasidan chetga chiqish man etiladi;

y) yong'inni avtomatik tarzda o'chirish va yong'in signalizatsiyasi qurilmalarining texnik vositalarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish ishlari jarayonida ushbu sohada mavjud bo'lgan ko'rsatma va normativ hujjatlarda belgilangan talablarga rioya etish, shu bilan birga ishlab chiqarish hujjatlarini tuzish va olib borish.

10.	Izoh:	* <i>Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i> ** <i>Montaj qilish, sozlash, ta‘mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish ishlarini bajaruvchilar, yuridik shaxsning doimiy shtatda bo‘lishi, shu jumladan, o‘zaro shartnoma tuzgan holda mutaxassislarni yoki subpudrat tashkilotlarini jalb etishi mumkin.</i>
-----	--------------	---

(9-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga
10-ILOVA

Qo‘riqlash texnik vositalari va tizimlarini montaj qilish, sozlash, ta‘mirlash hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Qo‘riqlash texnik vositalari va tizimlarini montaj qilish, sozlash, ta‘mirlash hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to‘g‘risida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi:	Qo‘riqlash texnik vositalari va tizimlarini montaj qilish, sozlash, ta‘mirlash hamda ularga texnik xizmat ko‘rsatish faoliyati yoki uning bir qismi
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ:	O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma‘lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag‘i, bank kodi); d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzillari, kadastr raqami); e) faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxsning (rahbarning) elektronika va elektrotexnika sohasida “muhandislik” yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotga shuningdek tegishli ixtisoslik, signalizatsiya qurilmalarini montaj qilish, sozlash, ta‘mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari bo‘yicha kamida uch yil ish staji va maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar:

		familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSIR; telefon raqami; ma'lumot to'g'risidagi diplom yoki xorijiy davlatda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqidagi guvohnoma raqami va sanasi; sertifikatlar va malaka toifasi berilganligi to'g'risidagi boshqa hujjatlar (agar mavjud bo'lsa PDF formatda yuklanadi); yo) faoliyat bilan shug'ullanuvchi ish bajaruvchilarning ma'lumoti: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSIR; telefon raqami; ma'lumot to'g'risidagi diplom yoki xorijiy davlatda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqidagi guvohnoma raqami va sanasi; sertifikatlar va malaka toifasi berilganligi to'g'risidagi boshqa hujjatlar (agar mavjud bo'lsa PDF formatda yuklanadi).
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari:	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) yuridik shaxsning doimiy shtatida elektronika va elektrotexnika sohasida "muhandislik" yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan ishlar rahbarining mavjud bo'lishi;

b) montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajaruvchilar, yuridik shaxs doimiy shtatda bo'lishi, shu jumladan, o'zaro shartnoma tuzgan holda mutaxassislarni yoki subpudrat tashkilotlarni jalb etishi mumkin;

v) ishlar rahbarining tegishli ixtisoslik bo'yicha har to'rt yilda kamida bir marotaba maxsus tayyorgarlikdan o'tib malakasini oshirish;

g) ish bajaruvchilar quyidagi tegishli kasb-hunar, texnik ma'lumotga yoki yo'nalish bo'yicha maxsus kurslar sertifikatiga ega bo'lishlari shart:

qo'lda elektr payvandlovchi (gaz bilan payvandlovchi) yoki sanitariya-texnik uskunalarni montaj qiluvchi 4-razryaddan past bo'lmagan;

elektronika va elektrotexnika sohasida 3-razryaddan past bo'lmagan;

d) yuridik shaxs doimiy shtatida bo'lgan yoki ayrim ishlarni bajarish uchun o'zaro shartnoma tuzish orqali jalb etilayotgan subpudrat tashkilot mutaxassisning tegishli kasb-hunar yoki texnik ma'lumoti va malakasi bo'yicha razryadini ko'rsatib o'tishi;

e) xabardor qiluvchida xabardor etish faoliyatini amalga oshirish uchun quyidagi moddiy-texnik baza, asbob-uskunalar va boshqa texnik vositalarning mavjud bo'lishi:

kombinatsiyalashtirilgan pribor (qurilma markasi ko'rsatilsin);

megommetr (qurilma markasi ko'rsatilsin);

shumomer (qurilma markasi ko'rsatilsin);

elektr kavsharlagich (elektropayalnik);

elektr perforator;

elektr pirmadasta (elektrodrel);

chilangar asboblari to'plami;

elektr montaj asboblari to'plami;

montaj qiluvchining kaskasi;

montaj qiluvchining belbog'i;

narvon;

loyiha smeta hujjatlarini saqlash uchun seyf;

20 kv.m.dan kam bo'lmagan xizmat xonasi;

20 kv.m.dan kam bo'lmagan asbob-uskunalarini va texnik vositalarni saqlash uchun xona yoki maxsus ajratilgan joy.

Bunda o'lchash vositalari metrologik tekshiruv (qiyoslash) natijalari bo'yicha muvofiqlik sertifikatlariga ega bo'lishi hamda ushbu sertifikat muddatlari amalda bo'lishi;

yo) qo'riqlash texnik vositalari va tizimlarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyati turi bilan shug'ullanishda xabardor qilish sohasidagi qonunchilik hujjatlariga, standartlar talablariga rioya etishi va quyidagi texnik hujjatlarning mavjud bo'lishi:

RDPB 01-004:2010 "Yong'in o'chirish qurilmasining, yong'in va qo'riqlash xabargoxlarining grafik shartli belgilanishi";

SHNK 2.04.09-2007 "Bino va inshootlarning yong'in avtomatikasi" va boshqa shu sohadagi normativ hujjatlar;

j) qo'riqlash texnik vositalari va tizimlarini montaj qilish yuzasidan topshirilgan obyektlarni hisobini (reyestrini) olib borish va ularni ishlatishning butun davrida loyihalarning va boshqa hujjatlarning (yoki ularning nusxalarining) saqlanishini ta'minlash;*

z) ishlarni bajarish vaqtida ishlatiladigan mahsulotlar va materiallar loyihaning o'ziga xos xususiyatlariga, davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishi va tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga va ularning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlariga ega bo'lishi;

i) obyektlarda o'rnatilgan qo'riqlash texnik vositalari va tizimlari to'g'risidagi axborotlarning, shuningdek, obyektida ishlarni bajarish jarayonida ma'lum bo'lib qolgan boshqa ma'lumotlarni muhofaza qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning ko'rilishi zarur;

y) qurilmalarni montaj qilish jarayonida buyurtmachi va qo'riqlash bo'linmalari bilan kelishmasdan loyihaviy yechimlar yoki ko'rik dalolatnomasidan chetga chiqish man etiladi;

k) qo'riqlash texnik vositalari va tizimlarini montaj qilish, sozlash, ta'mirlash hamda ularga texnik xizmat ko'rsatish ishlari jarayonida ushbu sohada mavjud bo'lgan qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etish, shu bilan birga ishlab chiqarish hujjatlarini tuzish va olib borish.

10.	Izoh:	* <i>Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>
-----	--------------	---

(10-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga
11-ILOVA

**Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini sotish faoliyatining
PASPORTI**

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini sotish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to‘g‘risida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini sotish
3.	Xabardor qiluvchitoifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar):	Tuman (shahar) soliq inspeksiyalari
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma’lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag‘i, bank kodi); d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili va kadastr raqami.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma’lumotlar tekshirilishi lozim bo‘lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma’lumotlari):	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi; O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori:	Yig‘im undirilmaydi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) ta’lim, sport va diniy muassasalar hududlarida, jamoat transporti bekatlarida, davolash-profilaktika va sport-sog‘lomlashtirish muassasalari hududida, ushbu muassasalar va

		ishlab chiqarish korxonalari oshxonalarida joylashmagan bo‘lishi;* b) qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda onlayn nazorat-kassa mashinalari yoki virtual kassa va bank plastik kartochkalaridan to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha hisob-kitob terminallari bilan jihozlangan bo‘lishi;* v) elektron hisob-fakturadan majburiy tartibda foydalanishi shart; g) “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalari talablariga qat’iy rioya qilish; d) alkogol mahsulotlari sotiladigan joylarda ularning yigirma yoshga to‘lmagan shaxslarga sotilishiga yo‘l qo‘yilmasligi, shuningdek alkogol mahsulotlarining inson sog‘lig‘iga zararli ta’siri to‘g‘risida ogohlantiruvchi yozuvlar joylashtirilgan bo‘lishi;* e) alkogol mahsulotlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan eng kam chakana narxlardan past narxlarda sotmaslik; yo) belgilangan namunadagi aksiz markalari bilan markalangan (pivodan tashqari) alkogol mahsulotlari sotish.*
10.	Izoh:	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini sotish faoliyatini boshlaganlik haqida xabarnoma har bir savdo obyekti uchun alohida yuboriladi. Alkogol mahsulotlarini sotish huquqi uchun yig‘im alkogol mahsulotlarini sotish boshlanganligi to‘g‘risida xabarnoma yuborilgan vaqtdan boshlab to‘lanadi. Bunda xabarnoma oyning yigirmanchi sanasigacha yuborilganda yig‘im joriy oy uchun to‘liq hajmda, xabarnoma oyning yigirma?chi sanasidan keyin yuborilganda keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab hisoblanadi. Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini sotish to‘xtatilganda yoki tugatilganda, yig‘im hisoblanishi keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab to‘xtatiladi. Alkogol mahsulotlarini sotish huquqi uchun yig‘im har oyda oldindan to‘lov shaklida joriy oyning o‘ninchi sanasiga qadar to‘lanishi lozim. <i>* Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(11-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga
12-ILOVA

Avtomototransport vositasi konstruksiyasini va (yoki) uning bir qismini o‘zgartirish bilan bog‘liq faoliyatining
PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Avtomototransport vositasi konstruksiyasini va (yoki) uning bir qismini o‘zgartirish bilan bog‘liq faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi:	Avtomototransport vositasi konstruksiyasini va (yoki) uning qismini o‘zgartirish bilan bog‘liq faoliyat
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi vakolatli organ(lar):	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma’lumotlar:	<i>Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun:</i> a) YTTning: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; b) yashash manzili hamda elektron pochta manzili; v) mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag‘i, bank kodi); d) faoliyatni amalga oshirish manzil(lar)i; e) avtomototransport vositasini qayta jihozlash faoliyatining turi; <i>Yuridik shaxslar uchun:</i> yo) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR;

		j) pochta hamda elektron pochta manzili; z) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); i) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); y) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzil(lar)i; k) avtomototransport vositasini qayta jihozlash faoliyatining turi; <i>Yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar uchun:</i> l) tashkilot standartining (Ts) elektron nusxasi; m) namunalarning yo'l harakati xavfsizligi sohasida texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi yuzasidan o'tkazilgan qabul-sinov dalolatnomasi raqami va sanasi; n) avtotransport vositalariga gaz balloni jihozlarini o'rnatish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyekti avtotransport vositasining alohida modellari konstruksiyasining texnik loyihasi elektron nusxasi; o) Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tomonidan berilgan ballonlarni texnik shahodat sinovidan o'tkazish huquqini beruvchi ruxsatnomaning raqami va sanasi; p) Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan berilgan gaz balloni uskunalarini ulanmalarining germetikligi va ishonchliligini sinovdan o'tkazish bo'yicha laboratoriyaning akkreditatsiya guvohnomasining raqami va sanasi.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) tashkilot standarti (Ts) talablariga, ekologiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normalari talablariga majburiy rioya qilish;

		b) tegishli harakatni va (yoki) belgilangan faoliyatni bajarish yoki amalga oshirish uchun ishlab chiqarish-texnik bazaning (binolar, inshootlar, ishlab chiqarish maydonlari va yer uchastkalari, texnologik jihozlar, tayyorgarlikdan o'tgan xodimlar) mavjud bo'lishi; v) yong'in xavfsizligiga, avtotransport vositasining saqlanishiga, texnika xavfsizligiga rioya qilishga oid talablarni bajarish;* g) faqat tegishli hujjatlari (egasining shaxsini tasdiqlovchi hujjat, taqdim etilgan avtomototransport vositasining ro'yxatdan o'tganligi to'g'risida guvohnoma yoki avtomototransport vositasi mazkur shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlovchi boshqa hujjat) mavjud bo'lgan avtomototransport vositasi egalari xizmat ko'rsatish;* d) xabarnoma yuborishda ko'rsatilgan doirada tegishli harakatni bajarish va (yoki) belgilangan faoliyatni amalga oshirish; e) faoliyatni amalga oshirishda sanoat xavfsizligi qoidalariga rioya etish.
10.	Izoh:	* <i>Qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(12-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi yagona
nizomga
13-ILOVA

Avtovokzal (avtostansiya) faoliyatining PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Avtovokzalning (avtostansiyaning) faoliyatini boshlaganligi yoki tugatganligi haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi:	Avtovokzalning (avtostansiyaning) faoliyatini amalga oshirish
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnoma qabul qiluvchi organ:	Qoraqalpog'iston Respublikasi Transport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar transport boshqarmalari
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	"Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab qilinadigan ma'lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili;

v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda);

g) yuridik shaxs rahbarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:

pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami;

JSHTSHIR;

d) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi);

e) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili va kadastr raqami;

yo) faoliyat toifasiga oid quyidagi ma'lumotlar:

bir vaqtning o'zida yo'lovchi sig'imi;

bir sutkadagi jo'natishlar soni;

yo'lovchilar uchun kutish zali sig'imi;

sanitariya-gigiyena xonalari soni;

chiptaxonalar (kassalar) soni.

turg'un metall detektorlar soni;

qo'l metall detektorlar soni;

videokuzatuv kameralari soni.

Xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashishga xizmat ko'rsatishda qo'shimcha ravishda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

j) haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishga mas'ul bo'lgan xodim to'g'risida ma'lumot:

pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami;

JSHTSHIR;

diplomi raqami va sanasi.

z) avtotransport vositalarining texnik holatini ko'rikdan o'tkazishga mas'ul bo'lgan shaxs to'g'risida ma'lumot:

		pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSIR; diplomi raqami va sanasi.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari:	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Statistika agentligi; O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi.
8.	Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) xabarnomada nazarda tutilgan yo'lovchilarning aynan bir vaqtdagi sig'imi, avtotransport vositalarini bir sutkada jo'nab ketishi sonini ta'minlash; b) avtovokzal (avtostansiya)ning binosida quyidagilarning mavjud bo'lishi: haydovchilar uzoq vaqt dam olish xonasi; ona va bola xonasi; haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish xonasi (<i>xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashishga xizmat ko'rsatishda</i>);* sanitariya-gigiyena va madaniy-maishiy xona; chiptaxonalar (kassalar); v) yo'lovchilar uchun kutish zallarida, chipta kassalarida hamda yo'lovchilar ko'p to'planadigan boshqa joylarda videokuzatuv kameralarining o'rnatilganligi, avtovokzal (avtostansiya) perimetri bo'yicha to'siqlarning, avtovokzal (avtostansiya)ga kirish-chiqish joylarida shlagbaumlarning mavjudligi; g) avtovokzalga kirish joylarida yo'lovchilarni va ularning bagajini tekshirish uchun turg'un metall detektorlar bilan jihozlangan tekshirish postlarining mavjudligi. d) xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashishga xizmat ko'rsatishda reysga chiqishdan oldin avtotransport vositalarini

		texnik ko'rikdan o'tkazish va haydovchilarning tibbiy ko'rigi bo'yicha talablarni bajarish.*
10.	Izoh:	* <i>Qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(13-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi yagona nizomga
14-ILOVA

Noshirlik faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Noshirlik faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	a) ijtimoiy-siyosiy nashrlar — ijtimoiy-siyosiy mavzular, tashviqot va targ'ibot xususiyatiga ega bo'lgan asarni o'z ichiga olgan va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan nashr; b) adabiy-badiiy nashrlar — badiiy adabiyotlar muallif tomonidan uylab topilgan syujet va qahramonlarga ega bo'lgan barcha asarlarni nazarda tutadi. Badiiy adabiyot romanlar, qissalar, hikoyalar, novellalar, pyesalar, adabiy to'plamlar, antologiyalar, almanaxlar; v) bolalar va o'smirlar nashrlari — bolalar va yoshlar uchun mo'ljallangan badiiy adabiyotlar, yosh va o'rta yoshli bolalar va o'smirlar uchun yozilgan asarlar, shuningdek, mumtoz adabiyot asarlarini qayta ishlash va qisqartirishni o'z ichiga olgan nashrlar; g) ma'naviy-ma'rifiy nashrlar — insonning barkamol shaxs sifatida voyaga yetishida muhim omil bo'lib xizmat qiladigan muayyan ijtimoiy muhit, jamiyat va tuzumlar, davlatlar ularning taraqqiyot bosqichlari, boshqaruv uslublari, ijtimoiy axloq me'yorlarini tadqiq va targ'ib etishga, asoslashga yo'naltirilgan asarlar majmui; d) ilmiy nashrlar — ilmiy tadqiqotlar yoki nazariy umumlashmalar natijasida yaratilgan va eng yangi ilmiy yutuqlar, tadqiqotlarning borishi hamda natijalari haqida mutaxassislarga ma'lumot berish maqsadida tarqatiladigan yozma va bosma asarlar majmui (ilmiy fundamental tadqiqotlar, ilmiy asarlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, referatlar); e) ilmiy-ommabop nashrlar — adabiyot, ilm-fan va ilmiy kashfiyotlarni keng omma uchun qulay bo'lgan tilda tasvirlaydigan kitoblar majmui; yo) o'quv adabiyotlarini nashr etish — muayyan ta'lim tizimi uchun o'qitish yoki kadrlarni qayta tayyorlash, muayyan ta'lim muassasasi uchun yoki o'z-o'zini tarbiyalash vositasi sifatida

		yaratilgan adabiyotlar (o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar, uslubiy qo‘llanmalar, ko‘rgazmali qo‘llanmalar, xrestomatiyalar, misol-masalalar to‘plamlari, praktikumlar, ish daftarlari, o‘quv dasturlari); j) ensiklopedik (ma’lumotnoma) nashrlar — turli xil axborotlarni (ilmiy, amaliy va boshqalar) olishga mo‘ljallangan nashrlar. Ilmiy yoki amaliy xususiyatga ega bo‘lgan qisqacha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, tezkor qidirish uchun qulay tartibda joylashtirilgan va uzluksiz o‘qish uchun mo‘ljallanmagan nashr; z) rasmiy nashrlar — normativ yoki ko‘rsatma tariqasidagi materiallarni o‘z ichiga olgan va davlat organlari, muassasalar, idoralar yoki jamoat tashkilotlari nomidan e‘lon qilingan nashrlar (qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqalar); i) diniy nashrlar — ma’lum bir dinning falsafasi, tarixi haqidagi va uning axloqiy ta’limotlarga mos keladigan aqidaviy (kanonik) adabiyotlar, aqidaviy matnlardagi syujetlar va timsollar asosida yaratilgan turli janr va yo‘nalishlardagi nashrlar; y) axborot-reklama nashrlari — bukletlar, yo‘l ko‘rsatkichlari, reklama materiallaridan iborat bo‘lib, mahsulot, xizmat va hodisalar haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, ularga talabni yaratish uchun e’tiborni jalb qiladigan nashrlar; k) ishlab chiqarish sohasidagi normativlarni nashr etish — ishlab chiqarish faoliyatining turli sohalarida qoidalar va talablarni o‘z ichiga olgan (yo‘riqnomalar, standartlar, texnik reglamentlar, ustavlar, preyskurantlar) rasmiy nashrlar.
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi vakolatli organ(lar):	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma’lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta (hamda elektron pochta) manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag‘i, bank kodi); d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzillari); e) noshirlik faoliyati ixtisoslashuvi;

		yo) yuridik shaxs rahbarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari: pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JS SHSHIR; j) mas'ul muharrirning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari: pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JS SHSHIR; ma'lumoti to'g'risidagi diplom raqami, sanasi va mutaxassisligi; z) moddiy-texnik uskunalar haqida ma'lumot (turi va soni).
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) noshirlik faoliyatini faqat xabarnomada belgilangan ixtisoslik bo'yicha amalga oshirish; b) adabiy va badiiy asarlarni himoya qilish to'g'risidagi Bern Konvensiyasining talablariga qat'iy amal qilish; v) urush, zo'ravonlik, pornografiya, terrorizm, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalarini targ'ib qilish hamda mavjud konstitutsiyaviy tuzumni, hududiy yaxlitlikni zo'rlik bilan o'zgartirishga, mamlakatda xavfsizlikni va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, jamiyatning huquqiy va ma'naviy asoslarini, fuqarolar totuvligini, millatlararo va dinlararo hamjihatlikni buzishga da'vat qilishga qaratilgan, shuningdek O'zbekiston to'g'risida noto'g'ri axborotlar tarqatish hamda uning tarixiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarini buzib ko'rsatish uchun foydalanilishini ko'zlovchi matbaa mahsulotlarini nashr etishga hamda qonunchilikda taqiqlangan ma'lumotlarni tarqatishga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash;*

		g) davlat siri bo'lgan ma'lumotlar yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarning oshkor bo'lishiga yo'l qo'yilmaslik;* d) nashr uchun taqdim etilgan bosma mahsulotlarda fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'siga putur yetishiga, shaxsiy hayotiga aralashuvga yo'l qo'yilmasligini ta'minlash; e) ixtisoslik bo'yicha ilmiy, adabiy-badiiy, ilmiy-ommabop, bolalar adabiyotlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanmalar, tarjima asarlari, tibbiyot sohasiga oid adabiyotlar sohasiga oid nashrlar, lug'atlarni chop etishda mutasaddi vazirlik, idora va Ilmiy kengashlarning tavsiyasi, sohaga oid yetakchi olim va mutaxassislarning taqrizlari olinishini ta'minlash; yo) diniy mazmundagi nashrlarni (kitob, risola, broshyura, taqvim, qo'llanma va boshqalar) chop etilishida Din ishlari qo'mitasining xulosasi olinishiga qat'i rioya etilishini ta'minlash;* j) noshirlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tegishli moddiy-texnik baza, asbob-uskunalar va boshqa texnika vositalarining mavjud bo'lishini ta'minlash; z) mualliflik huquqlari buzilmasligini ta'minlash; i) tayyorlangan matbaa mahsulot (jumladan, mazkur mahsulot tarkibiga kirgan asar)larining nusxalari, tayyorlangan nusxalar soni, shuningdek, xabardor etuvchi yoki buyurtmachining nashr etish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar hisobini yuritish; y) har chorakda nashr etilgan (hamda etiladigan) adabiyotlar to'g'risida (har bir nashrning muallifi, nomi, mavzusi (ixtisoslashuvi), janri, nusxasi ko'rsatilgan holda) hisobot choragidan keyingi oyning 10-kunigacha Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligiga tegishli ma'lumotnoma taqdim etish; k) qonunchilikka asosan bosma mahsulotlarning tegishli nusxalarini majburiy tartibda sotish va yuborish.
10.	Izoh:	Ushbu talablar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, sudlar, prokuratura organlari tomonidan rasmiy materiallar, normativ-huquqiy hujjatlar to'plamlari va boshqa hujjatlarni nashr etishga, respublika ahamiyatiga ega bo'lgan nodavlat va notijorat tashkilotlari, shuningdek, korxonalar, tashkilotlar, o'quv va ilmiy muassasalar tomonidan o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan va qo'lyozma huquqlari bilan ommaviy ravishda tarqatish yoki ko'paytirish uchun mo'ljallanmagan materiallarni nashr etishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

		* <i>Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>
--	--	---

(14-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga
15-ILOVA

Matbaa faoliyatining
PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Matbaa korxonalarini tashkil etganlik yoki tugatganlik to‘g‘risida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	a) matbaa mahsulotlarining qoliplarini tayyorlash — chop etishgacha bo‘lgan jarayon bo‘lib, matn va tasvirlar asosida ofset, trafaret yoki shoyitrafaret, flekso, yuqori bosma, chuqur bosma, termo bosma va chuqur bosma usullarida chop etish uchun bosma qoliplarni tayyorlash; b) ofset usulida chop etish — matbaa faoliyatida asosan ko‘p adadli (tiraj) matbaa mahsulotlarini tayyorlashda foydalaniladigan jarayon bo‘lib, matn va tasvirlarni foto qoliplardan qog‘ozga o‘tkazib chop etish usuli; v) flekso usulida chop etish — fotopolimer xomashyo yoki yumshoq rezinadan relyefli chop etish qolipi va suyuq bo‘yoqlar bilan chop etish usuli bo‘lib, qog‘oz, polietilen va shu turdagi boshqa materiallarga matn va tasvirlarni tushirish jarayoni; g) matbaa qoliplarsiz chop etish — raqamli chop etish texnologiyalari yordamida matn va tasvirlarni qog‘oz, polietilen va boshqa materiallarga chop etish usuli; d) trafaret yoki shoyitrafaret usulida chop etish — fotomexanik usulda yoki qo‘lda tayyorlangan trafaretdan turli materiallarga yoki tayyor sanoat mahsulotlariga matn yoki tasvirlar aksini tushirish; e) brayl usulida chop etish — olti nuqta kombinatsiyasiga asoslangan bo‘rtma nuqta hamda bo‘rtma relyef asosida ko‘zi ojizlar uchun matn va tasvirlarni chop etish usuli; yo) tayyor mahsulotlar va materiallarga bosish — tayyor sanoat mahsulotlari va materiallarga matn va tasvirni qizdirish yoki elastik bosma element orqali bosish; j) chop etishdan keyingi jarayonlar va muqovalash — buklash va saralash, tikish, kesish va shakl berib kesish, yelimlash, laminatsiyalash, laklash, muqovani tayyorlash, muqovalash va boshqa jarayonlar.

3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi vakolatli organ(lar):	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	"Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma'lumotlar:	<i>Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun:</i> a) YTTning: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; b) faoliyatini amalga oshirish joyi (manzili); v) yashash manzili va elektron pochta manzili; g) mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); d) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); e) faoliyat olib borilayotgan manzilning mulk huquqi yoki ijara asosida faoliyat yuritayotganligi to'g'risida ma'lumot (kadastr raqami); yo) matbaa korxonasi ixtisoslashuvi; j) korxonada mavjud bo'lgan uskunalar ro'yxati. <i>Yuridik shaxslar uchun:</i> z) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; i) pochta (hamda elektron pochta) manzili; y) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); k) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); l) faoliyat olib borilayotgan manzilning mulk huquqi yoki ijara asosida faoliyat yuritayotganligi to'g'risida ma'lumot (kadastr raqami);

		m) matbaa korxonasi ixtisoslashuvi; n) yuridik shaxs rahbarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari: pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHTSHIR; o) korxonada mavjud bo'lgan uskunalar ro'yxati.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va normativ hujjatlari, amaldagi me'yor va qoidalar, davlat yoki sohalararo standartlar asosida matbaa faoliyati turlari bilan shug'ullanish yoki matbaa mahsulotlarini tayyorlash; b) noshirlik faoliyatini amalga oshirish bo'yicha va guvohnoma asosida chop etiladigan mahsulotlarni, gazeta, jurnal va boshqa ommaviy axborot vositalarini chop etishda tegishli hujjatlarning nusxasini talab qilish (nashriyot grifi, OAV ro'yxatdan o'tkazilgani to'g'risidagi guvohnoma); v) nazorat qiluvchi organlarning taqdimnomalarini belgilangan muddatlarda bajarish; g) qonunchilikda belgilangan talablar asosida texnik uskunalar o'rnatilgan joylarga begona shaxslar kirishini taqiqlash va faoliyatni tashkil qilish jarayonlariga aralashuvning oldini olish.
10.	Izoh:	Ushbu xabarnomani yuborish nusxa ko'chirish, dizaynerlik va fotostudiya xizmati, matn terish, original maket tayyorlash faoliyatlariga nisbatan talab etilmaydi.

(15-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi yagona
nizomga
16-ILOVA

**Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari
faoliyatining**

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmatlar bozorining professional ishtirokchilari faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	a) tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish sohasidagi xizmat vazifalarini amalga oshirish; b) mehnat sharoitlari bo'yicha ish o'rinlarini attestatsiyadan o'tkazish; v) mehnatni muhofaza qilish sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; g) tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish sohasida audit o'tkazish.
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar):	O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi.
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	"Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma'lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta (hamda elektron pochta) manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); d) mehnatni muhofaza qilish bo'yicha malakali mutaxassis sertifikatiga ega bo'lgan xodimlari haqida ma'lumot (F.I.O., malaka sertifikati sanasi va raqami); e) attestatsiya xizmatlari ko'rsatmoqchi bo'lganda, akkreditatsiya qilingan laboratoriya attestatining raqami va sanasi (laboratoriya bo'lganda).
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi"; O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi

9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) mehnatni muhofaza qilish sohasida malakali xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning bevosita xizmat ko'rsatish jarayonida ishtirok etuvchi xodimlari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda beriladigan mehnatni muhofaza qilish sohasida malaka sertifikatiga ega bo'lishi kerak, tashkilot shtatida mehnatni muhofaza qilish mutaxassisi malaka sertifikatiga ega bo'lgan xodimlar soni uch kishidan kam bo'lmasligi lozim;* b) mulk huquqi, xo'jalik yurituvchi yoki operativ boshqaruv huquqi yoxud boshqa qonuniy asosda tegishli bo'lgan akkreditatsiyalangan ishlab chiqarish muhiti va mehnat jarayoni omillarini o'lchashga mo'ljallangan akkreditatsiyalangan sinov laboratoriyasiga ega bo'lish (attestatsiya xizmatlari ko'rsatmoqchi bo'lganda); v) akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyasida foydalaniladigan asbob-uskunalar muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lishi va belgilangan tartibda metrologik tekshiruvdan (davlat qiyoslovidan) o'tkazilgan bo'lishi (attestatsiya xizmatlari ko'rsatmoqchi bo'lganda); g) ish o'rinlarida attestatsiya o'tkazilgan korxonaning attestatsiya materiallari mehnat organlarida davlat ekspertizasidan o'tkazilishi uchun taqdim etilishi (attestatsiya xizmatlari ko'rsatmoqchi bo'lganda); d) o'quv-tematik rejalar va o'quv dasturlari asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'lishi; e) ta'lim berish uchun mo'ljallangan texnik vositalar mavjud ekanligi.
10.	Izoh:	* <i>Qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(16-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi yagona nizomga
17-ILOVA

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi:	Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyati
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yakka tartibdagi tadbirkor

4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar):	Maktabgacha ta'lim agentligining tuman (shahar) bo'limlari
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma'lumotlar:	a) YTTning: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; b) faoliyatini amalga oshirish joyi (manzili); v) yashash manzili va elektron pochta manzili; g) mobil telefon raqami, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); d) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); e) faoliyat olib borilayotgan manzilning mulk huquqi yoki ijara asosida faoliyat yuritayotganligi to'g'risida ma'lumot; yo) davlat-xususiy sheriklik bitimi raqami va sanasi, bitim bo'yicha quvvati; j) yong'in nazorati organlarining mavjud binolar va xonalarning yong'in xavfsizligi talablariga mosligi haqidagi xulosasi raqami va sanasi; z) sanitariya-epidemiologiya xizmati organining mavjud binolar va xonalarning gigiyena qoidalari va normativlariga mosligi haqidagi xulosasi raqami va sanasi; y) tarbiyachi haqida ma'lumot: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; ma'lumoti to'g'risida diplom raqami va sanasi; k) tarbiyachi yordamchisi haqida ma'lumot: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa);

		pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; ma'lumoti to'g'risida diplom raqami va sanasi; (agar mavjud bo'lsa).
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari)	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi; Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) 3 yoshdan 7 yosh 9 oygacha bo'lgan 7-50 nafar bolalarni tarbiyalash; b) 5 kunlik ish haftasi uchun, qoida tariqasida, 9 soatli va 4 soatli kunlik ish tartibini joriy etish, 6 kunlik ish haftasi ham joriy etilishi mumkin; v) o'z ustavi, kun tartibi, ta'lim-tarbiya dasturlariga ega bo'lishi; g) maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlash me'yorlarga muvofiq bo'lishi; d) tarbiyachining tegishli oliy yoki o'rta maxsus pedagogik ma'lumotga yoki O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha qayta tayyorlovdan o'tkazilgan hamda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lishi;*

		e) sud tomonidan yoki tibbiy xulosaga muvofiq bunday faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanmasligi talabiga rioya etish; yo) "Open Emis" axborot tizimi orqali imtiyozli qabulga bo'sh o'rinlar haqida axborot berib borishi va murojaatga ko'ra imtiyozlarni qo'llash.
10.	Izoh:	* <i>Qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(17-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi yagona nizomga
18-ILOVA

Oftalmologiya tibbiy buyumlarini chakana realizatsiyasi (optika) faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Oftalmologiya tibbiy buyumlarining chakana realizatsiyasi (optika) bo'yicha faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi:	Oftalmologiya tibbiy buyumlarining chakana realizatsiyasiga (optikaga) doir faoliyat
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnoma qabul qiluvchi organ:	Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar hududiy bo'linmalari
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	"Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab qilinadigan ma'lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili va kadastr raqami; e) mas'ul xodim to'g'risidagi ma'lumotlar: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa);

		pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSIR; ma'lumoti to'g'risidagi diplom raqami va sanasi, mutaxassislik nomi.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari:	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi.
8.	Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) yuridik shaxs shtatida har bir tashkil etiladigan obyekt uchun tegishli ixtisoslikka ega bo'lgan kamida bittadan mas'ul mutaxassisning mavjudligi;* b) faoliyatni amalga oshirish uchun quyidagi minimal sharoitlarni yaratish: savdo zali 10 m², jumladan, iste'molchilarga xizmat zonasi 5 m², ish o'rinlari zonasi 5 m²; tibbiy buyumlar uchun xona (filiali bo'lganda) — 4 m²; qo'l yuvish moslamasi bo'lishi; v) kanselyariya stoli; stul; ustki va maxsus qiyimlar saqlash uchun sharoit; vitrina va peshtaxtalarning sanitariya rejimini ta'minlash uchun xo'jalik inventari va dezinfeksiyalovchi vositalar; stellaj; tovar qo'ygich; sovutgich; termometr kabi asbob-uskunalarining mavjudligini ta'minlash.
10.	Izoh:	* <i>Qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(18-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi yagona nizomga
19-ILOVA

Alkohol mahsulotlari bilan chakana savdo qilish faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilishni boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi:	Alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilish
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar):	Tuman (shahar) soliq inspeksiyalari
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma’lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo’lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag’i, bank kodi); d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili va kadastr raqami.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma’lumotlar tekshirilishi lozim bo’lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma’lumotlari):	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo’mitasi; O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori:	Yig‘im undirilmaydi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) ta’lim, sport muassasalari va diniy muassasalardan to‘g‘ri chiziqli bo‘ylab ikki yuz metrdan kam masofada joylashmagan bo‘lishi, savdo obyekti umumiy savdo maydoni ming kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan savdo majmualarining (bozorlarning) va yarmarka pavilonlarining hududida joylashgan hollar bundan mustasno; b) o‘ziga mulk yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo‘lgan yoki ijaraga olingan, alohida kiriladigan savdo zali bo‘lgan (faqat alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilishga mo‘ljallangan), chekka tog‘li tumanlarda — alohida savdo seksiyasi bo‘lgan turg‘un shoxobcha bo‘lishi; v) jamoat transporti to‘xtash joylarida, shu jumladan, metropoliten bekatlarida, jamoat joylarida va dam olish joylarida, davolash-profilaktika va sport-sog‘lomlashtirish muassasalari hududlarida, ushbu muassasalar va ishlab chiqarish

		korxonalarining oshxonalarida, shuningdek, avtostansiyalarda joylashmagan bo‘lish; g) qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda onlayn nazorat-kassa mashinalari yoki virtual kassalardan, shuningdek bank plastik kartochkalaridan to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha hisob-kitob terminallari bilan jihozlangan bo‘lish;* d) elektron hisob-fakturadan majburiy tartibda foydalanish; e) qonunchilikda belgilangan alkogol mahsulotlar, bilan chakana savdo qilish huquqi uchun har oylik mahalliy yig‘imni to‘lab borish; yo) “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste’mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari talablariga qat’i rioya qilish; j) alkogol mahsulotlari sotiladigan joylarda ularning yigirma yoshga to‘lmagan shaxslarga sotilishiga yo‘l qo‘yilmasligi, shuningdek, alkogol mahsulotlarining inson sog‘lig‘iga zararli ta’siri to‘g‘risida ogohlantiruvchi yozuvlar joylashtirilgan bo‘lishi;* z) alkogol mahsulotlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan eng kam chakana narxlardan past narxlarda sotmaslik; i) belgilangan namunadagi aksiz markalari bilan markalangan (pivodan tashqari) alkogol mahsulotlari sotmasligi* y) alkogol mahsulotlarini saqlash uchun omborxona bo‘lishi; k) shaharlarda — kamida 25 kvadrat metrli, qishloq joylarda — kamida 15 kvadrat metrli (faqat alkogol mahsulotlari sotish uchun mo‘ljallangan) savdo zali, uzoq tog‘li joylarda — alohida savdo bo‘limi mavjud bo‘lgan turg‘un savdo shoxobchalarida amalga oshirilishi.
10.	Izoh:	Alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilishni boshlaganlik haqidagi xabarnoma har bir chakana savdo obyekti uchun alohida yuboriladi. Alkogol mahsulotlarini sotish huquqi uchun yig‘im alkogol mahsulotlarini sotish boshlanganligi to‘g‘risida xabarnoma yuborilgan vaqtdan boshlab to‘lanadi. Bunda xabarnoma oyning yigirmanchi sanasigacha yuborilganda yig‘im joriy oy uchun to‘liq hajmda, xabarnoma oyning yigirmanchi sanasidan keyin yuborilganda keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab hisoblanadi.

	Alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilish faoliyati to‘xtatilganda yoki tugatilganda, yig‘im hisoblanishi keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab to‘xtatiladi. Alkogol mahsulotlarini sotish huquqi uchun yig‘im har oyda oldindan to‘lov shaklida joriy oyning o‘ninchi sanasiga qadar to‘lanadi. <i>* Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>
--	--

(19-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi yagona
nizomga
20-ILOVA

Veterinariya davolash-profilaktika faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Veterinariya davolash-profilaktika faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi:	Veterinariya davolash-profilaktika faoliyati
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik va jismoniy shaxslar
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar):	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi, viloyatlar hamda Toshkent shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmalari
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab qilinadigan ma’lumotlar:	<i>Jismoniy shaxslar uchun:</i> a) jismoniy shaxsning: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; b) yashash manzili; v) mobil telefon raqami; g) o‘zini o‘zi band qilgan sifatida ro‘yxatdan o‘tganlik raqami;

		d) veterinariya mutaxassisi to'g'risidagi ma'lumotini tasdiqlovchi diplom raqami va sanasi; e) malaka oshirganligi to'g'risidagi sertifikat (agar mavjud bo'lsa); yo) faoliyatni amalga oshirish hududi; <i>Yuridik shaxslar uchun:</i> j) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; z) pochta hamda elektron pochta manzili; i) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); y) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); k) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzil(lar)i, kadastr raqami); l) xodimining veterinariya mutaxassisi to'g'risidagi ma'lumotini tasdiqlovchi diplom raqami va sanasi; m) xodimining malaka oshirganligi to'g'risidagi sertifikat ma'lumotlari (agar mavjud bo'lsa).
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
8.	Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) veterinariya yo'nalishidagi ta'lim muassasasini (oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar va professional ta'lim) bitirgan mutaxassislikka ega bo'lish;* b) O'zbekiston Respublikasida ruxsat berilgan profilaktika va davolash usullarini, shuningdek, davlat ro'yxatidan o'tkazilgan veterinariya preparatlarini qo'llash;* v) epizootiya paydo bo'lgan taqdirda, davlat veterinariya xizmatining ko'rsatmalariga binoan veterinariya tadbirlarini o'tkazish;*

		g) hayvonlarda yuqumli kasallik borligi xususida shubha mavjud bo'lgan taqdirda, bu haqda davlat veterinariya xizmatiga zudlik bilan xabar qilishi va kasallik doirasi kengayib ketmasligi yuzasidan barcha zarur choralarni ko'rishi;* d) 5 yilda kamida bir marta belgilangan tartibda malakasini oshirish; e) hayvonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd etib borish maqsadida ambulator jurnalini yuritish, shuningdek, ma'lumotlarni veterinariya pasporti va tegishli axborot tizimida (ishga tushirilganda) qayd etish.*
10.	Izoh:	* <i>Qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(20-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi **yagona nizomga**
21-ILOVA

Neft mahsulotlarini (avtobenzin, aviabenzin, ekstrabenzin, dizel yonilg'isi, aviakerosin, mazut, pechka qoramoyi, neft bitumi, shuningdek texnik moylar va moylash materiallarini), zavodda idishlarga qadoqlanganlari bundan mustasno, sotish faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Neft mahsulotlarini (avtobenzin, aviabenzin, ekstrabenzin, dizel yonilg'isi, aviakerosin, mazut, pechka qoramoyi, neft bitumi, shuningdek texnik moylar va moylash materiallarini), zavodda idishlarga qadoqlanganlari bundan mustasno, sotish faoliyatini, boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	Avtobenzin, aviabenzin, ekstrabenzin, dizel yoqilg'isi, aviakerosin, mazut, pechka qoramoyi, neft bitumi (neft bitumining yo'llarga mo'ljallangan markalari bundan mustasno), shuningdek, texnik moylar va moylash materiallarini sotish bo'yicha faoliyat
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar):	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	"Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab qilinadigan ma'lumotlar:	a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda);

		g) yuridik shaxs rahbarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari: pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; d) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); e) faoliyat amalga oshiriladigan mulk huquqining yoki boshqa ashyoviy huquqqa ega binolar va inshootlar manzili va kadastr raqami; yo) Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi Neft va gaz sohasida sanoat xavfsizligi inspeksiyasining neft mahsulotlarini sotish faoliyatining tegishli turini amalga oshirishda sanoat xavfsizligi bo'yicha qo'yiladigan minimal talablar bajarilganligi to'g'risidagi xulosasining raqami va sanasi; j) Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hududiy boshqarmalarining neft mahsulotlarini sotish faoliyatining tegishli turini amalga oshirishda tabiatni muhofaza qilish va ekologiya bo'yicha qo'yiladigan minimal talablar bajarilganligi to'g'risidagi xulosasining raqami va sanasi; z) Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong'in xavfsizligi hududiy boshqarmalarining neft mahsulotlarini sotish faoliyatining tegishli turini amalga oshirishda yong'in xavfsizligi bo'yicha qo'yiladigan minimal talablar bajarilganligi xulosasining raqami va sanasi; i) "O'zenergoinspeksiya" hududiy boshqarmasining neft mahsulotlarini sotish faoliyatining tegishli turini amalga oshirishda neft mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, tarqatish, hisobga olishga va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga qo'yiladigan minimal talablar bajarilganligi to'g'risidagi xulosasining raqami va sanasi.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	Favqulodda vaziyatlar vazirligi; Davlat soliq qo'mitasi; Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi; Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi; Adliya vazirligi; Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi.

8.	Xabarnoma yuborish uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) sotiladigan neft mahsulotlariga sifat sertifikatining mavjudligi; b) mavjud moddiy-texnik bazadan, neft omboridan va yonilg‘i quyish asbob-uskunalaridan, boshqa texnika vositalaridan foydalanish uchun sharoitlarning yaratilganligi; v) davlat siri hisoblanadigan ma’lumotlardan foydalanish bilan bog‘liq ishlar bajarilgan taqdirda, rejim organining mavjudligi;* g) faoliyatni amalga oshirish uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar, muhandislik kommunikatsiyalari va texnologiya asbob-uskunalarining mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqning mavjudligi.
10.	Izoh:	Faoliyat turli manzillarda amalga oshiriladigan taqdirda, xabarnomani qabul qiluvchi organga alohida xabarnoma yuborilishi talab etiladi. <i>* Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(21-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25-sentabrdagi 603-sonli qarori tahririda)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi **yagona nizomga**
22-ILOVA

Geodeziya va kartografiya faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Geodeziya va kartografiya faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	a) geodeziya faoliyati turlari: 1) davlat geodeziya, nivelir, gravimetriya tarmoqlarini, geodezik zichlashtirish tarmoqlarini tashkil etish, rivojlantirish, davriy tekshirish va tiklash hamda ishlash holatida saqlab turish, bunda 1 — 4-sinf triangulyatsiya, poligonometriya, nivelir, gravimetriya tarmoqlari, sun‘iy yo‘ldoshli geodezik tarmoqlari RGP, SGS-0, SGS-1 hamda zichlashirish tarmoqlarini tashkil etish, rivojlantirish, davriy tekshirish va tiklash; 2) sun‘iy yo‘ldosh navigatsiya tizimlarining ishlashini ta‘minlash uchun geodeziya faoliyatiga doir materiallarni (ma’lumotlarni) tashkil etish, bunda navigatsiya tizimlari uchun doimiy faoliyat ko‘rsatadigan sun‘iy yo‘ldosh orqali kuzatish stansiyalari tarmog‘ini tashkil etish va ishchi holatida saqlab turish;

3) O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini delimitatsiya, demarkatsiya (redemarkatsiya) qilish va uning o'tish chizig'ini tekshirish bo'yicha ishlarni zarur geodeziya faoliyatiga doir ishlar, materiallar (ma'lumotlar) bilan ta'minlash;

4) yer shakli va tashqi gravitatsiya maydonining parametrlarini aniqlash, bunda davlat gravimetrik punktlarida og'irlik kuchi tezlanishining absolyut (nisbiy) qiymatlarini aniqlash bo'yicha gravimetriya ishlari, geodeziya punktlarida kenglik, uzunlik va azimutni astronomik aniqlash ishlari;

5) yerning kartografik monitoringini, uni masofadan turib zondlashni va geodinamika tadqiqotlarini amalga oshirish, bunda aerokosmik suratga olish (sun'iy yo'ldosh, samolyot va uchuvchisiz uchish qurilmalari yordamida) 1:2 000, 1:10 000, 1:25 000, 1:50 000, 1:100 000, 1:200 000, 1:500 000 va 1:1 000 000 masshtablarda raqamli ortofotoplanlar yaratish, geodinamik tadqiqotlarda nuqtalarning yuqori aniqlikdagi geodezik koordinata va balandliklarini aniqlash;

6) muhandislik qidiruvlarida, binolarni, inshootlarni qurish hamda ulardan foydalanishda, yer tuzishda, davlat kadastrlarini yuritishda va boshqa ishlarda geodezik zichlashtirish tarmoqlarini qurish hamda rivojlantirish, bunda 4-sinf, 1 va 2-razryad triangulyatsiya, poligonometriya, 3 va 4-sinf nivelir tarmoqlarini tashkil etish va rivojlantirish.

7) muhandislik qidiruvlarida, binolar va inshootlarni qurish hamda ulardan foydalanishda va boshqa ishlarda maxsus geodeziya tarmoqlarini qurish, bunda maxsus triangulyatsiya va nivelirlash ishlari davlat geodeziya tarmoqlariga bog'lanmagan holda amalga oshiriladi;

8) geodeziya tasvirga olish tarmoqlarini qurish, aholi punktlarining hududlari va qishloqlararo hududlarni rivojlantirishni hamda ularda qurilish olib borishni rejalashtirish to'g'risidagi shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish, shuningdek boshqa ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan topografik rejalarini yaratish va yangilash, bunda maydoni bir viloyat hududigacha bo'lgan maydonda 1:500, 1:1 000, 1:2 000, 1:5 000, 1:10 000 masshtablarda maxsus yoki mavzuli rejalarini yaratish va yangilash;

9) quyidagi faoliyat yo'nalishlari turlari bo'yicha (o'ta muhim va toifalashtirilgan, shuningdek, rejimli va harbiy obyektlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tarmoqlari ma'lumotlaridan (materiallaridan) foydalanmagan holda):

mahalliy koordinatalar tizimida maxsus ahamiyatga ega bo'lgan geodezik reja va balandlik shoxobchalarini yaratish;

mahalliy koordinatalar tizimida 1:500, 1:1 000, 1:2 000, 1:5 000 masshtablarda past va o'rta bosimli gaz ta'minoti, elektr ta'minoti, kanalizatsiya va qorizlar, shuningdek, aholisi 100 ming kishigacha bo'lgan aholi punktlari suv ta'minotining tarmoqlari va obyektlarida maxsus xaritalar, rejalarni yaratish;

100 gektargacha bo'lgan hudud uchun abonentlar foydalanadigan telekommunikatsiyalar tarmoqlari tasvirlangan maxsus xaritalar, rejalarni yaratish;

maydoni 10 kv.km gacha bo'lgan geologiya, marksheyder, muhandislik izlanishlari va boshqa izlanishlarda geodeziya va topografiya ishlari;

10) muhandislik qidiruvlarini amalga oshirish chog'ida geodeziya va kartografiyaga oid ishlarni ta'minlash maqsadida yerni masofadan turib zondlash, bunda bitta viloyat yoki Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidan katta bo'lmagan maydonda aerosuratga olish (sun'iy yo'ldosh, samolyot va uchuvchisiz uchish qurilmalari yordamida 1:500, 1:1 000, 1:2 000, 1:5 000, 1:10 000 masshtablarda raqamli ortofotoplanlar yaratish);

b) kartografiya faoliyati turlari:

11) sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimlarining ishlashini ta'minlash uchun kartografiyaga doir materiallarni (ma'lumotlarni) tashkil etish, bunda bazaviy kartografik asos yaratish va yangilash;

12) milliy geografik axborot tizimini, umumdavlat ahamiyatiga molik boshqa geografik axborot tizimlarini yaratish va yuritish;

13) kartografiya-geodeziya davlat kadastrini yuritish;

14) geografik obyektlarning nomlarini belgilash, me'yorlashtirish, davlat ro'yxatidan o'tkazish, ulardan foydalanish va ularni saqlash, shuningdek, geografik obyektlar nomlarining davlat reyestrini yuritish;

15) grafik, raqamli, fotosurat shaklidagi va boshqa shakllardagi davlat topografik xaritalari hamda rejalarni yaratish, yangilash va nashr etish, bunda 1:500, 1:1 000, 1:2 000, 1:10 000, 1:25 000, 1:50 000, 1:100 000, 1:200 000, 1:500 000 va 1:1 000 000 masshtablarda raqamli topografik reja va xaritalarni yaratish va yangilash;

16) bazaviy fazoviy ma'lumotlar va fazoviy ma'lumotlarning milliy infratuzilmasini yaratish, rivojlantirish va uning faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, bunda ilmiy-texnik siyosatni, texnik va dasturiy vositalarni, bazaviy va ixtisoslashgan fazoviy

		ma'lumotlarni, metama'lumotlar va metama'lumotlar bazalarini, fazoviy ma'lumotlar servislarini, texnik tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni, xalqaro standartlarni, O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy bo'lgan fazoviy ma'lumotlarni ishlab chiqish, yangilash, ishlov berish, saqlash, taqdim etish, integratsiyalash; 17) umumgeografik, siyosiy-ma'muriy, ilmiy-ma'lumotga oid va boshqa tematik xaritalar hamda tarmoqlararo ahamiyatga molik atlaslar, kartografik o'quv qo'llanmalarini yaratish va nashr etish; 18) maxsus ahamiyatga molik geografik axborot tizimlarini yaratish va yuritish; 19) grafik, raqamli, fotosurat shaklidagi hamda boshqa shakllardagi maxsus ahamiyatga molik tematik xaritalar, rejalar va atlaslarni tuzish hamda nashr etish (maxfiy materiallar va ma'lumotlar, shuningdek o'ta muhim va toifalashtirilgan, shuningdek, rejimli hamda harbiy obyektlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tarmoqlari va boshqalar bundan mustasno); 20) ochiq foydalanishdagi geografik axborot tizimlarini yaratish va yuritish (maxfiy materiallar va ma'lumotlar, shuningdek o'ta muhim va toifalashtirilgan, shuningdek, rejimli hamda harbiy obyektlarga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tarmoqlari va boshqalar bundan mustasno).
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	a) 1 — 4 hamda 11 — 15 faoliyat turlari bo'yicha faqat Kadastr agentligi tizimi korxonalari. b) 5 — 10 hamda 16 — 20 faoliyat turlari bo'yicha Kadastr agentligi, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, geodeziya va kartografiya faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar.
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar):	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	"Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab qilinadigan ma'lumotlar:	<i>Yuridik shaxslar uchun:</i> a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); g) yuridik shaxs rahbarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:

pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami;

JS SHSHIR;

d) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi);

e) geodeziya faoliyati turlari tanlanganda:

geodezik o'lchov vositalarining nomi, markasi, ishlab chiqarilgan raqami va metrologik tekshiruvdan (davlat qiyoslovidan) o'tkazilganligi to'g'risidagi sertifikat raqami va sanasi;

tanlangan geodeziya faoliyat turiga qo'yilgan talabdan kelib chiqib, balansida bo'lgan geodeziya faoliyati uchun foydalanadigan o'lchov vositalari, asbob-uskunalar, uchuvchisiz uchish qurilmasi va boshqalar yuridik shaxsning balansiga tegishli ekanligini tasdiqlovchi inventar ro'yxat;

5-faoliyat turi tanlanganda uchuvchisiz uchish qurilmalaridan foydalanishga maxsus ruxsatnomaning elektron nusxasi yuklanadi;

yo) kartografiya faoliyat turlari tanlanganda:

11 — 13, 15, 16 — 19 — faoliyat turlari tanlanganda elektron raqamli xaritalarni tuzish uchun mo'ljallangan litsenzion dasturiy ta'minotning litsenziya raqami va olingan sanasi, katta formatli skaner (kamida A1 formatidagi) va plotterning (formati A1 dan kam bo'lmagan) nomi, markasi, ishlab chiqarilgan raqami ko'rsatiladi;

17 va 19 — faoliyat turlari tanlanganda elektron raqamli xaritalarni tuzish uchun mo'ljallangan litsenzion dasturiy ta'minotning litsenziya raqami va olingan sanasi, to'rt rangli ofset bosib chiqarish mashinasi (formati A1 dan kam bo'lmagan), fotosurat uskunalari (formati A1 dan kam bo'lmagan) yoki termal ofset plitalarini chiqarish uchun uskunalari (formati A1 dan kam bo'lmagan), katta formatli skaner (kamida A1 formatidagi) va plotterning (formati A1 dan kam bo'lmagan) nomi, markasi, ishlab chiqarilgan raqami ko'rsatiladi;

j) geodeziya va kartografiya mutaxassisligi bo'lgan xodimning:

pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami;

JS SHSHIR;

		diplom raqami va sanasi; z) 1 — 6 va 10 — 18 faoliyat turlarida toifalangan materiallar (ma'lumotlar) bilan ishlash uchun maxsus bo'limini mavjudligi to'g'risida ma'lumot.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi.
8.	Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) faoliyatni amalga oshirish davrida foydalaniladigan barcha geodezik o'lchov vositalari o'rnatilgan tartibda metrologik tekshiruvdan o'tkazilganligi to'g'risidagi sertifikat bo'lishi va har 12 oyda yangilanishi; b) faoliyat turlari bo'yicha quyidagi talab va shartlarga rioya etish: 1-faoliyat turi bo'yicha: elektron taxeometr 1" — 1 dona;* shtativ (uch oyoqli tayanch) — 3 dona; nur qaytargich — 2 dona; nur qaytargich uchun tutqich (nur qaytargich uchun tayanch tayoqchasi) — 2dona; ikki tomonlama nivelir yo'li uchun o'rtacha kvadratik xatoligi 1 km.ga I-sinf uchun ± 0.5 mm, II-sinf uchun ± 1 mm bo'lgan nivelir — 1 dona;* nivelir ish uchun invar sanoq olish tayoqchasi — 2 dona; 2 chastotali GNSS qabul qiluvchilari — 2 komplekt;* shtativ (uch oyoqli tayanch) — 2 dona; toifalangan materiallar (ma'lumotlar) bilan ishlash uchun maxsus bo'limning mavjudligi;*

geodeziya va (yoki) topografiya mutaxassisligini tamomlagan va ushbu yo‘nalishda kamida bir yillik ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;

2-faoliyat turi bo‘yicha:

2 chastotali GNSS qabul qiluvchilari — 2 komplekt;*

shtativ (uch oyoqli tayanch) — 2 dona;

ikki tomonlama nivelir yo‘li uchun o‘rtacha kvadratik xatoligi 1 km.ga I-sinf uchun ± 0.5 mm, II-sinf uchun ± 1 mm bo‘lgan nivelir — 1 dona;*

nivelir ish uchun invar sanoq olish tayoqchasi — 2 dona;

toifalangan materiallar (ma‘lumotlar) bilan ishlash uchun maxsus bo‘limning mavjudligi;*

geodeziya va (yoki) topografiya mutaxassisligini tamomlagan va ushbu yo‘nalishda kamida bir yillik ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;*

3-faoliyat turi bo‘yicha:

elektron taxeometr 1" — 1 dona;*

shtativ (uch oyoqli tayanch) — 3 dona;

nur qaytargich — 2 dona;

nur qaytargich uchun tutqich (nur qaytargich uchun tayanch tayoqchasi) — 2 dona;

ikki tomonlama nivelir yo‘li uchun o‘rtacha kvadratik xatoligi 1 km.ga I-sinf uchun ± 0.5 mm, II-sinf uchun ± 1 mm bo‘lgan nivelir — 1 dona;*

nivelir ish uchun invar sanoq olish tayoqchasi — 2 dona;

2 chastotali GNSS qabul qiluvchilari — 2 komplekt;

toifalangan materiallar (ma‘lumotlar) bilan ishlash uchun maxsus bo‘limning mavjudligi;*

geodeziya va (yoki) topografiya mutaxassisligini tamomlagan va ushbu yo‘nalishda kamida bir yillik ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;*

4-faoliyat turi bo‘yicha:

gravimetr — 1 komplekt;*

2 chastotali GNSS qabul qiluvchilari — 2 komplekt;*

shtativ (uch oyoqli tayanch) — 2 dona;

toifalangan materiallar (ma'lumotlar) bilan ishlash uchun maxsus bo'limning mavjudligi;*

geodeziya va (yoki) topografiya mutaxassisligini tamomlagan va ushbu yo'nalishda kamida bir yillik ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;*

5-faoliyat turi bo'yicha:

samolyot (yoki uchuvchisiz uchish qurilmasi) va aerokamera — 1 komplekt;*

aero yoki kosmik sur'atlarni qayta ishlash uchun litsenziyalangan dasturiy ta'minot hamda kompyuter;

elektron taxeometr 1" — 1 dona;*

shtativ (uch oyoqli tayanch) — 3 dona;

nur qaytargich — 2 dona;

nur qaytargich uchun tutqich (nur qaytargich uchun tayanch tayoqchasi) — 2 dona;

ikki tomonlama nivelir yo'li uchun o'rtacha kvadratik xatoligi 1 km.ga I-sinf uchun ± 0.5 mm, II-sinf uchun ± 1 mm bo'lgan nivelir — 1 dona;*

nivelir ish uchun invar sanoq olish tayoqchasi — 2 dona;

2 chastotali GNSS qabul qiluvchilari — 2 komplekt;*

toifalangan materiallar (ma'lumotlar) bilan ishlash uchun maxsus bo'limini mavjudligi;*

geodeziya va kartografiya, yerni masofadan turib zondlash, GAT mutaxassisliklaridan birini tamomlagan va ushbu yo'nalishda kamida bir yillik ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;*

6 va 7-faoliyat turlari bo'yicha:

burchak o'lchashning o'rtacha kvadrat xatolik 7" gacha bo'lgan elektron taxeometr — 1 komplekt;*

oʻrtacha kvadratik xatolik 1 km.ga ± 3 mm boʻlgan nivelir — 1 dona;*

2 chastotali GNSS qabul qiluvchilari — 1 komplekt;*

nur qaytargich — 2 dona;

shtativ (uch oyoqli tayanch) — 3 dona;

nivelir uchun shaxmat koʻrinishi (yoki invar)dagi sanoq olish tayoqchasi — 2 dona;

nur qaytargich uchun tutqich (nur qaytargich uchun tayanch tayoqchasi) — 2 dona;

toifalangan materiallar (maʼlumotlar) bilan ishlash uchun maxsus boʻlimning mavjudligi (faqat 6-faoliyat turi uchun);*

geodeziya mutaxassisligini tamomlagan va ushbu yoʻnalishda kamida bir yil ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;*

8-faoliyat turi boʻyicha:

burchak oʻlchashning oʻrtacha kvadrat xatolik 7" gacha boʻlgan elektron taxometr — 1 komplekt;*

oʻrtacha kvadrat xatolik 1 km.ga ± 3 mm boʻlgan nivelir — 1 dona;*

2 chastotali GNSS qabul qiluvchilari — 1 komplekt;*

nur qaytargich — 2 dona;

shtativ (uch oyoqli tayanch) — 3 dona;

nivelir uchun shaxmat koʻrinishi (yoki invar)dagi sanoq olish tayoqchasi — 2 dona;

nur qaytargich uchun tutqich (nur qaytargich uchun tayanch tayoqchasi) — 2 dona;

geodeziya va (yoki) topografiya mutaxassisliklaridan birini tamomlagan va ushbu yoʻnalishda kamida bir yil ish stajiga ega bir nafar xodim;*

9-faoliyat turi boʻyicha:

burchak oʻlchashning oʻrtacha kvadrat xatolik 7" gacha boʻlgan elektron taxometr — 1 komplekt;*

oʻrtacha kvadrat xatolik 1 km.ga ± 3 mm boʻlgan nivelir — 1 dona;*

nur qaytargich — 2 dona;

shtativ (uch oyoqli tayanch) — 3 dona;

nivelir uchun shaxmat koʻrinishi (yoki invar)dagi sanoq olish tayoqchasi — 2 dona;

nur qaytargich uchun tutqich (nur qaytargich uchun tayanch tayoqchasi) — 2 dona;

geodeziya, topografiya, marksheyder mutaxassisliklaridan birini tamomlagan va ushbu yoʻnalishda kamida bir yil ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;*

10-faoliyat turi boʻyicha:

samolyot (yoki uchuvchisiz uchish qurilmasi) va aerokamera — 1 komplekt;*

aero yoki kosmik surʼatlarni qayta ishlash uchun litsenziyalangan dasturiy taʼminot hamda kompyuter;

toifalangan materiallar (maʼlumotlar) bilan ishlash uchun maxsus boʻlimning mavjudligi;*

kartografiya, davlat kadastrlari, GAT, yerni masofadan turib zondlash, dasturlash va axborot texnologiyalari mutaxassisliklaridan birini tamomlagan va ushbu yoʻnalishda kamida bir yillik ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;*

11, 13, 14, 15-faoliyat turlari boʻyicha:

geografik axborot tizimlarini yaratish va yuritish uchun litsenziyalangan dasturiy taʼminot;*

katta formatdagi skaner (kamida A1 formati) — 1 dona;

plotter (formati A1 dan kam boʻlmagan) — 1 dona;

litsenziyalangan dasturiy mahsulot uchun kompyuter — 1 dona;

toifalangan materiallar (maʼlumotlar) bilan ishlash uchun maxsus boʻlimning mavjudligi;*

geodeziya va (yoki) kartografiya, GAT yoʻnalishi mutaxassisliklaridan birini tamomlagan va ushbu yoʻnalishda kamida bir yillik ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;*

12 va 16-faoliyat turlari bo'yicha:

GAT va boshqa bazaviy fazoviy ma'lumotlarni shakllantirish va yuritishda litsenziyalangan dasturiy ta'minotlar;*

litsenziyalangan dasturiy mahsulot(lar) uchun kompyuter (yoki server) qurilmasi — 1 dona;

toifalangan materiallar (ma'lumotlar) bilan ishlash uchun maxsus bo'limning mavjudligi;*

kartografiya, GAT, geoinformatika, yerni masofadan turib zondlash, yer tuzish va davlat kadastrlari, dasturlash va axborot texnologiyalari mutaxassisliklaridan birini tamomlagan va ushbu yo'nalishda kamida bir yillik ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;*

17-faoliyat turi bo'yicha:

xaritalarni tuzish uchun litsenziyalangan dasturiy ta'minot;*

katta formatdagi skaner (kamida A1 formati) — 1 dona;*

plotter (formati A1 dan kam bo'lmagan) — 1 dona;*

litsenziyalangan dasturiy ta'minotdan foydalanish uchun kompyuter — 1 dona;

fotosurat uskunalari (formati A1 dan kam bo'lmagan) yoki termal ofset plitalarini chiqarish uchun uskunar (formati A1 dan kam bo'lmagan) — 1 dona;*

to'rt rangli ofset bosib chiqarish mashinasi (formati A1 dan kam bo'lmagan) — 1 dona;

toifalangan materiallar (ma'lumotlar) bilan ishlash uchun maxsus bo'limning mavjudligi;*

kartografiya, GAT yo'nalishlaridan birini tamomlagan va ushbu yo'nalishda kamida bir yillik ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;*

18-faoliyat turi bo'yicha:

geografik axborot tizimlarini yaratish va yuritish uchun litsenzion dasturiy ta'minot;*

katta formatdagi skaner (kamida A1 formati) — 1 dona;

plotter (formati A1 dan kam bo'lmagan) — 1 dona;

		litsenziyalangan dasturiy ta'minotdan foydalanish uchun kompyuter — 1 dona; toifalangan materiallar (ma'lumotlar) bilan ishlash uchun maxsus bo'limning mavjudligi;* kartografiya, GAT mutaxassisliklaridan birini tamomlagan va ushbu yo'nalishda kamida bir yillik ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;* 19-faoliyat turi bo'yicha: xaritalarni tuzish uchun litsenziyalangan dasturiy ta'minot;* katta formatdagi skaner (kamida A1 formati) — 1 dona; plotter (formati A1 dan kam bo'lmagan) — 1 dona; kartografiya, GAT mutaxassisliklaridan birini tamomlagan va ushbu yo'nalishda kamida bir yillik ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi;* 20-faoliyat turi bo'yicha: geografik axborot tizimlarini yaratish va yuritish uchun dasturiy ta'minot — 1 dona; dasturiy ta'minotdan foydalanish uchun kompyuter — 1 dona; kartografiya, GAT, dasturlash va (yoki) axborot texnologiyalari mutaxassisliklaridan birini tamomlagan va ushbu yo'nalishda kamida bir yillik ish stajiga ega bir nafar xodim ishlashi.*
10.	Izoh:	* <i>Qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(22-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi yagona
nizomga
23-ILOVA

Yuqori chastotali qurilmalardan foydalanishning

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Yuqori chastotali qurilmalardan foydalanishni boshlash va tugatish to'g'risida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi:	Yuqori chastotali qurilmalardan metallarni eritish, metallarga ishlov berish va boshqa sohalarda foydalanish

3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, xalqaro tashkilotlarning vakolatxonalari
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi organ(lar):	“Elektromagnit moslashuv markazi” DUK (EMMM) va hududiy elektromagnit moslashuv xizmatlari; Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha hududiy inspeksiyalar.
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma'lumotlar:	<i>Jismoniy shaxslar uchun:</i> a) jismoniy shaxsning: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; b) yashash manzili hamda elektron pochta manzili; v) mobil telefon raqami; g) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); d) yuqori chastotali qurilmaning o'rnatish punkti (viloyat, tuman, aholi punkti, koordinatasi); e) o'rnatish joyi (sex, maydon, laboratoriya, xona, korpus, qavat va boshqalar); yo) yuqori chastotali qurilmaning: turi; zavod raqami; ishlab chiqarilgan yili va mamlakati; respublikaga kirish sanasi va bojxona deklaratsiyasining raqami; quvvati, kVt; maqsadi; chastota barqarorligi; ishlash tartibi;

ishlash chastotalari, kGs.

j) yuqori chastotali qurilmani hisobga olish va foydalanishga mas'ul shaxs etib belgilangan xodimning:

familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa);

pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami;

JSHTSHIR;

lavozimi, telefon raqami;

Yuridik shaxslar uchun:

z) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR;

i) pochta hamda elektron pochta manzili;

y) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda);

k) yuridik shaxs rahbarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:

pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami;

JSHTSHIR;

l) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi);

m) yuqori chastotali qurilmaning o'rnatish punkti (viloyat, tuman, aholi punkti, koordinatasi).

n) o'rnatish joyi (sex, maydon, laboratoriya, xona, korpus, qavat va boshqalar).

o) yuqori chastotali qurilmaning:

turi;

zavod raqami;

ishlab chiqarilgan yili va mamlakati;

respublikaga kirish sanasi va bojxona deklaratsiyasining raqami;

		quvvati, kVt; maqsadi; chastota barqarorligi; ishlash tartibi; ishlash chastotalari, kGs. p) yuqori chastotali qurilmani hisobga olish va foydalanishga mas'ul shaxs etib belgilangan xodimning: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; lavozimi, telefon raqami.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	Talab qilinmaydi
8.	Xabarnomani yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) radiochastotalar bo'yicha Respublika kengashi qarorlari va EMMM ruxsatnomalarida ko'rsatilgan xatti-harakatlarni amalga oshirish; b) turli xil qo'llanishdagi yuqori chastotali qurilmadan foydalanish faqat radiochastotalar bo'yicha Respublika kengashi qarorlarida ko'rsatilgan polosalar doirasida turi va ishchi chastotalarga ega yuqori chastotali qurilma uchun amalga oshiriladi;* v) EMMMning ruxsatisiz O'zbekiston Respublikasi hududida yuqori chastotali qurilmani sotib olish (berish), olib kirish, shuningdek, ulardan foydalanishni boshlash va tugatish haqidagi xabarnoma taqdim qilmasdan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi, xabarnoma talab qilinmaydigan yuqori chastotali qurilmalar bundan mustasno;* g) sanoat radioxalaqitlarning manbai bo'lishi mumkin bo'lgan yuqori chastotali qurilma hosil qiladigan radioxalaqitlar bostirilishini ta'minlaydigan qurilmalar bilan jihozlanishi shart;

		d) yuqori chastotali qurilmani olib kirish uchun ruxsatnomalarni olishda xabardor qiluvchi avval sotib olish (berish) uchun ruxsatnomani rasmiylashtirgan bo‘lishi lozim.
10.	Izoh:	* <i>Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(23-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga
24-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

Pivo va pivo ichimliklari ishlab chiqarish va ulgurji savdo qilish faoliyatining

PASPORTI

(24-ilovaning nomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Pivo va pivo ichimliklari ishlab chiqarish va ulgurji savdo qilish faoliyatini boshlaganlik yoki tugatganlik to‘g‘risida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turi:	Pivo va pivo ichimliklari ishlab chiqarish va ulgurji savdo qilish faoliyati
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs
4.	Xabarnomani qabul qiluvchi vakolatli organ(lar):	O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab etiladigan ma’lumotlar:	1. Pivo va pivo ichimliklarini ishlab chiqaruvchilar uchun: a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda); g) yuridik shaxs rahbarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari: pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR;

d) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi);

e) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzillari, kadastr raqami);

j) ishlab chiqarish obyektlari, saqlash omborlari joylashgan manzillar;

z) ishlab chiqarish obyektining elektron pasporti;

i) spirt va alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida tegishli malakaga ega bo'lgan kamida ikki nafar mutaxassislar to'g'risida ma'lumotlar:

familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa);

pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi raqami;

JSHTSHIR;

ma'lumoti to'g'risida diplom yoki boshqa hujjat raqami va sanasi;

k) ishlab chiqarish quvvatlarining sanitariya-gigiyena normalariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosaning sanasi va raqami.

2. Pivo va pivo ichimliklari ulgurji savdosi faoliyati bilan shug'ullanuvchilar uchun:

a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR;

b) pochta hamda elektron pochta manzili;

v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda);

g) yuridik shaxs rahbarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari:

pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami;

JSHTSHIR;

d) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi);

e) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili (manzillari, kadastr raqami).

7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi.
8.	Xabarnomani yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	1. Pivo va pivo ichimliklarini ishlab chiqaruvchilar uchun: a) ishlab chiqarish xavfsizligini, mehnatni muhofaza qilish va texnika xavfsizligini, yong'in xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi va ekologiya talablari va normalarini ta'minlash;* b) faoliyatni amalga oshirish uchun amaldagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan muvofiqlik sertifikatlari va boshqa tegishli hujjatlarning mavjudligi; v) har bir mahsulot turi uchun texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan tasdiqlangan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan texnologik yo'riqnomalarning mavjudligi; g) iste'mol etil spirti va alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida tegishli malakaga ega bo'lgan kamida ikki nafar mutaxassisning mavjudligi;* d) zarur asbob-uskunalar, priborlar, kimyoviy reaktivlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar bilan jihozlangan, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda nazarda tutilgan barcha zarur fizik-kimyoviy, mikrobiologik va boshqa ko'rsatkichlarni analiz qilish imkonini beruvchi ishlab chiqarish laboratoriyalari mavjudligi;* e) iste'mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlari ishlab chiqarishni qonunchilikka va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq statsionar ishlab chiqarish inshootlari va uskunalarida amalga oshirish;

		yo) ishlab chiqariladigan mahsulotning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi bo'yicha iste'mol etil spirti va alkogol mahsulotlarining organoleptik xususiyatlarini aniqlash bo'yicha degustatsiya komissiyasiga har chorakda mahsulot namunalarini taqdim etish; j) elektron shakldagi hisobvaraq-fakturadan foydalanish; z) doimiy ravishda ustav fondining kamida bazaviy hisoblash miqdorining 1 000 baravari bo'lishini ta'minlash;* i) ishlab chiqarish jarayoniga Identifikatsiya vositalari bilan majburiy raqamli markirovkalashni joriy qilish;* y) o'lchash jihozlari va ishlab chiqarishda foydalaniladigan uskunalarining muvofiqlik sertifikatini mavjud bo'lishi. 2. Pivo va pivo ichimliklari ulgurji savdosi bilan shug'ullanuvchilar uchun: a) pivo va pivo ichimliklari mahsulotlarini saqlash, qabul qilish va tarqatishning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga qat'iy rioya qilish; b) pivo va pivo ichimliklari mahsulotlarini saqlash, qabul qilish va tarqatish uchun mo'ljallangan va belgilangan talablarga javob beradigan binoga egalik qilish (o'z mulkida bo'lishi, xo'jalik yuritishida, operativ boshqaruvida bo'lishi yoki ijaraga olgan bo'lishi); v) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining axborot tizimiga integratsiyalashgan elektron hisobvaraq-fakturadan foydalanish; g) ulgurji savdoni amalga oshirishda qonunchilikda hujjatlarida belgilangan tartiblarga rioya qilish.
10.	Izoh:	Pivo va pivo ichimliklari mahsulotlari bilan ulgurji savdo qilishni boshlaganlik haqidagi xabarnoma har bir ulgurji savdo obyekti uchun alohida yuboriladi. * <i>Qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(24-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi yagona
nizomga
25-ILOVA

Umumiy ovqatlanish korxonalari va ko'ngilochar obyektlarning tungi vaqtda faoliyat yuritish faoliyatining
PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Umumiy ovqatlanish korxonalari va ko'ngilochar obyektlarning tungi vaqtda faoliyat yuritishni boshlaganligi yoki tugatganligi to'g'risida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	a) umumiy ovqatlanish korxonalarining soat 23.00 dan 06.00 gacha faoliyat yuritishi; b) ko'ngilochar obyektlarning soat 23.00 dan 06.00 gacha faoliyat yuritishi.
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor
4.	Xabarnoma qabul qiluvchi organ:	Tuman (shahar) ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmalari va bo'limlari
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	"Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab qilinadigan ma'lumotlar:	<i>Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun:</i> a) YTTning: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; b) yashash manzili; v) mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); d) faoliyatini amalga oshirish manzil(lar)i; <i>Yuridik shaxslar uchun:</i> e) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; yo) pochta hamda elektron pochta manzili; j) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); z) yuridik shaxs rahbarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari: pasport raqami va seriyasi yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR;

		i) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); y) faoliyatini amalga oshirish manzil(lar)i; <i>Yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslar uchun:</i> k) talablarning bajarilganligiga oid ma'lumotlar: faoliyat olib borilayotgan obyekt turi; faoliyat olib boriladigan binoning kadastr raqami; faoliyat olib boriladigan binodagi mijozlar uchun ajratilgan xonalar (zallar) soni; binoning ichki qismida o'rnatilgan videokuzatuv kameralari soni; binoning tashqi qismida o'rnatilgan videokuzatuv kameralari soni; yong'in o'chirish uskunalar soni.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi; Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi; Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi.
8.	Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) "Xavfsiz shahar" konsepsiyasi doirasida umumiy ovqatlanish korxonalari va ko'ngilochar obyektlarning ichki qismida, shu jumladan, xizmat ko'rsatish xonalari, kirish va chiqish joylariga tasvirni kamida o'n besh kun davomida saqlash imkonini beruvchi videokuzatuv tizimi mavjud bo'lishi;* b) binolarning yon-atrofi, avtoturargoh va ularga tegishli boshqa hududlarni yetarli darajada (kamida 10 metr masofada) yoritish; v) binoda shovqinning ruxsat etiladigan shovqin me'yorlariga qo'yiladigan sanitariya qoidalari va normalaridan oshmasligini ta'minlash, shu jumladan, obyektlarni to'liq tovush o'tkazmaydigan etib jihozlash yoki tungi vaqtda musiqa va tovush kuchaytirgich asbob-uskunalaridan foydalanmaslik; g) yong'in o'chirish vositalari hamda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur dori vositalari va tibbiy buyumlar to'plami solingan tibbiy yordam qutichalari bilan ta'minlash;

		d) binoning barcha uchun ko‘rinarli joylariga yong‘in va boshqa favqulodda (tezkor) vaziyatlar yuz bergan taqdirda harakatlanish va fuqarolarni evakuatsiya qilish chizmasi hamda tezkor va qutqaruv xizmatlarining telefon raqamlari ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni o‘rnatish; e) ko‘ngilochar obyektida sutkaning tungi vaqtida xavfsizlikni nazorat qilish uchun mas‘ul navbatchi xodim (xodimlar) tayinlash. Mas‘ul navbatchi xodimning vazifalarini sotuvchilar, oshpazlar, ofitsiantlar, mijozlarga bevosita tovarlarni sotuvchi va xizmatlarni ko‘rsatuvchi boshqa xodimlar zimmasiga yuklatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.*
10.	Izoh:	Umumiy ovqatlanish korxonalari — restoran, bar, kafe, yozgi kafe, kafeteriy, oshxona, choyxona va boshqa turg‘un ovqatlanish shoxobchalari. Ko‘ngilochar obyektlar — aholining dam olishi va hordiq chiqarishlari bilan bog‘liq tovarlarni sotish va xizmatlarni ko‘rsatishga moslashtirilgan klub, diskoteka, kompyuter zallari, Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish uchun jihozlangan xonalar yoxud boshqa ko‘ngilochar (bo‘sh vaqt o‘tkaziladigan) joylar. Mazkur Pasport qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qaroriga muvofiq yirik shaharlar, viloyatlar va tumanlar markazlarida tashkil etiladigan savdo va ko‘ngilochar ko‘chalarda tunu kun faoliyat yurituvchi savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmaydi <i>* Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(25-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli [qarori](#) tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi [yagona nizomga](#)
26-ILOVA

Madaniy boyliklarni realizatsiya qilish bo‘yicha faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Madaniy boyliklarni realizatsiya qilish bo‘yicha faoliyatni boshlaganlik yoki tugatganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	Madaniy boyliklarni realizatsiya qilish bo‘yicha faoliyati
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor

4.	Xabarnoma qabul qiluvchi organ:	O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab qilinadigan ma'lumotlar:	<i>Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun:</i> a) YTTning: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; b) faoliyatini amalga oshirish joyi (manzili); v) yashash manzili hamda elektron pochta manzili; g) mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); d) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); <i>Yuridik shaxslar uchun:</i> e) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; yo) pochta hamda elektron pochta manzili; j) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); z) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); i) madaniy boylik realizatsiya qilinadigan manzil(lar).
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari:	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi.
8.	Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) madaniy boyliklarning O'zbekiston hududidan olib chiqilishi yoki vaqtincha olib chiqilishida Madaniy meros agentligi tomonidan beriladigan olib chiqish huquqini beruvchi sertifikat asosida amalga oshirilishiga rioya qilish;

		b) ellik yil muqaddam va undan ham oldinroq yaratilgan madaniy boyliklarning O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi mumkin emasligi haqida xaridorni ogohlantirish;* v) madaniy boyliklarni asrash choralari ko‘rish.
10.	Izoh:	* <i>Qo‘pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(26-ilova O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to‘g‘risidagi yagona nizomga
27-ILOVA

Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini tasarrufdan chiqarish yoki universal huquqiy vorislik tartibida yoxud boshqa usulda bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tkazganlik haqida xabarnoma berish faoliyatining

PASPORTI

Oldingi tahrirga qarang.

1.	Xabarnoma nomi:	Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini tasarrufdan chiqarish yoki universal huquqiy vorislik tartibida yoxud boshqa usulda bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tkazganlik haqida xabarnoma
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	a) milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini tasarrufdan chiqarish; b) milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini universal huquqiy vorislik tartibida yoxud boshqa usulda bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o‘tkazish.
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik va jismoniy shaxslar
4.	Xabarnoma qabul qiluvchi organ:	O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab qilinadigan ma’lumotlar:	<i>Jismoniy shaxslar uchun:</i> a) jismoniy shaxsning: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo‘lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami; JSHSHIR; b) yashash manzili hamda elektron pochta manzili; v) mobil telefon raqami;

		<i>Yuridik shaxslar uchun:</i> g) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; d) pochta hamda elektron pochta manzili; e) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); yo) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); <i>Jismoniy va yuridik shaxslar uchun:</i> j) muzey ashyosi va muzey kolleksiyasining fotosuratlari; z) muzey ashyolari va muzey kolleksiyalari tasarrufiga o'tayotgan yoki universal huquqiy vorislik tartibida yoxud boshqa usulda berilayotgan shaxs to'g'risida ma'lumot (jismoniy shaxs — ismi, familiyasi, otasining ismi, pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiya ID-kartasi raqami, JSHSHIR; yuridik shaxs — tashkilot nomi, STIR, manzili, telefon raqami).
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari:	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi
8.	Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan maqsadli foydalanish; b) muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini but saqlash, ularni asrab-avaylash choralari ko'rib borish;* v) muzey ashyolari va muzey kolleksiyalaridan ilmiy, madaniy, ma'rifiy hamda ta'lim maqsadlarida foydalanilishini ta'minlash.
10.	Izoh:	Davlatga tegishli bo'lgan hamda davlat organlari va muassasalari muzeylariga nisbatan mazkur tartib tatbiq etilmaydi. <i>* Qo'pol ravishda buzish deb hisoblanadigan talab va shartlar.</i>

(27-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi yagona
nizomga
28-ILOVA

**Tamaki mahsulotlari bilan ulgurji savdo qilish faoliyatining
PASPORTI**

1.	Xabarnoma nomi:	Tamaki mahsulotlari bilan ulgurji savdo qilishni boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabarnoma.
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	Tamaki mahsulotlari bilan ulgurji savdo qilish.
3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor.
4.	Xabarnoma qabul qiluvchi organ:	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi.
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	"Litsenziya" AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab qilinadigan ma'lumotlar:	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun: a) YTTning: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi raqami; JSHSHIR; b) yashash manzili; v) pochta hamda elektron pochta manzili; g) mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); d) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); e) faoliyatini amalga oshirish manzili va kadastr raqami; Yuridik shaxslar uchun: a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo'lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag'i, bank kodi); d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili va kadastr raqami.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma'lumotlar tekshirilishi lozim	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi;

	bo'lgan davlat organlarining axborot tizimlari (ma'lumotlari):	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi; O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
8.	Xabarnoma yuborish uchun to'lanadigan yig'im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi.
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlari:	a) Tamaki mahsulotlarini saqlash, qabul qilish va tarqatishni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga qat'iy rioya qilish; b) Tamaki mahsulotlarini saqlash, qabul qilish va tarqatish uchun mo'ljallangan va belgilangan talablarga javob beradigan binoga egalik qilish (o'z mulkida bo'lishi, xo'jalik yuritishida, operativ boshqaruvida bo'lishi yoki ijaraga olgan bo'lishi); v) tamaki mahsulotlari realizatsiya qilinadigan joylarda ularni yigirma bir yoshga to'lmagan shaxslarga realizatsiya qilish taqiqlanganligi haqidagi ogohlantiruvchi yozuv yoki belgi, shuningdek, tibbiy ogohlantirish joylashtirilgan bo'lishi; g) Soliq qo'mitasining axborot tizimiga integratsiyalashgan elektron hisobvara-q-fakturadan foydalanish; d) Ulgurji savdoni amalga oshirishda qonunchilikda hujjatlarida belgilangan tartiblarga rioya qilish; e) "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni talablariga qat'iy rioya qilishi.
10.	Izoh:	Tamaki mahsulotlari bilan ulgurji savdo qilishni boshlaganlik haqidagi xabarnoma har bir ulgurji savdo obyekti uchun alohida yuboriladi.

(28-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)
Oldingi tahrirga qarang.

Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi **yagona nizomga**
29-ILOVA

Tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish faoliyatining
PASPORTI

1.	Xabarnoma nomi:	Tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilishni boshlaganlik yoki tugatganlik to'g'risida xabarnoma.
2.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari:	Tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilish.

3.	Xabardor qiluvchi toifasi:	Yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkor.
4.	Xabarnoma qabul qiluvchi organ:	Tuman (shahar) soliq inspeksiyalari.
5.	Xabarnomani yuborish tartibi:	“Litsenziya” AT yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
6.	Xabarnomani yuborish uchun talab qilinadigan ma’lumotlar:	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun: a) YTTning: familiyasi, ismi, otasining ismi (agar mavjud bo’lsa); pasport seriyasi va raqami yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasi raqami; JSHSHIR; b) yashash manzili; v) pochta hamda elektron pochta manzili; g) mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo’lgan taqdirda); d) bank rekvizitlari (hisobvarag‘i, bank kodi); e) faoliyatini amalga oshirish manzili va kadastr raqami; Yuridik shaxslar uchun: a) yuridik shaxs nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, STIR; b) pochta hamda elektron pochta manzili; v) yuridik shaxs rahbarining mobil telefon raqami, faoliyatni amalga oshirish joyining telefon raqami (mavjud bo’lgan taqdirda); g) bank rekvizitlari (hisobvarag‘i, bank kodi); d) faoliyat amalga oshiriladigan joy manzili va kadastr raqami.
7.	Xabardor qiluvchi kiritgan ma’lumotlar tekshirilishi lozim bo’lgan davlat organlarining axborot tizimlari:	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi; O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
8.	Xabarnoma yuborish uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori:	Bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi.
9.	Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan	a) tamaki mahsulotlarini: yigirma bir yoshga to‘lmagan shaxslarga;

	faoliyatning talablari va shartlari:	yigirma bir yoshga to‘lmagan shaxslar tomonidan; sotuvchining bevosita ishtirokisiz, shu jumladan, savdo avtomatlari, boshqa elektron yoki mexanik qurilmalar vositasida; o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish tokchalaridan; elektron tijorat shaklida, shu jumladan, har qanday yo‘l bilan oxirgi iste’molchilarga yetkazish yordamida; sayyor (qo‘lda, lotoklarda, savatchalarda, qo‘l aravachalarida) savdo qilish yo‘li bilan; ko‘chmas savdo obyektlaridan tashqarida; dorixonalarda; bolalarga mo‘ljallangan tovarlar realizatsiya qilinadigan xonalarda; bolalar o‘yinchoqlariga, konfetlarga yoki bolalar uchun mo‘ljallangan boshqa tovarlarga o‘xshatib ishlangan bo‘lsa; sog‘liqni saqlash tizimi tashkilotlari, ta’lim tashkilotlari, madaniyat muassasalari, jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport inshootlari, sanatoriy hamda tibbiy-ijtimoiy muassasalar hududlarida; ta’lim, sport va diniy tashkilotlar hududidan to‘g‘ri chiziq bo‘ylab yuz metrdan kam masofada joylashgan savdo obyektlarida, bundan savdo obyekti umumiy savdo maydoni ming kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan savdo majmualarining (bozorlarning) hududida va yarmarka pavilonlarida joylashgan hollar bundan mustasno; yaroqlilik muddati o‘tganda; mahsulot sifatini tasdiqlovchi tegishli hujjatlarsiz; tamaki mahsulotlarini saqlash va realizatsiya qilishga doir sanitariya normalari hamda qoidalariga mos kelmaydigan xonalar va joylarda; belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg‘alanmaganda — aksiz markalari bilan tamg‘alanishi lozim bo‘lgan tamaki mahsulotlariga nisbatan; qalbaki aksiz markalari bilan tamg‘alanganda; ularning ishlab chiqaruvchisini aniqlash imkonini bermaydigan tarzda aniq tamg‘alanmaganda;
--	--	---

		belgilangan tartibda raqamli identifikatsiya vositalari bilan tamg‘alanmaganda; ularni ishlab chiqarish uchun litsenziyaga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan ishlab chiqarilganda — litsenziyalanadigan tamaki mahsulotlariga nisbatan; tamaki mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqiga ega bo‘lmagan yoki ularni qonunchilikni buzgan holda sotgan yetkazib beruvchidan sotib olinganda; tamaki mahsulotining iste’mol o‘rovida (qutisida) tibbiy ogohlantirish bo‘lmaganda; agar tamaki mahsulotining iste’mol o‘rovida (qutisida) yigirma donadan kam sigareta bo‘lsa — sigaretalarga nisbatan; tamaki mahsuloti bo‘lmagan boshqa tovarlar bilan bir to‘plamda; iste’mol o‘rovisiz (qutisiz, bloksiz); donalab yoki ochilgan (yaxlitligi buzilgan) iste’mol o‘rovida — (qutisida) sigaretalar va qizdiriladigan tamaki mahsulotiga nisbatan; temir yo‘l vokzallarining, avtovokzallarning, aeroportlarning, Daryo bandargohlarining, metropoliten stansiyalarining hududlarida va xonalarida (boj olinmaydigan savdo do‘konlari bundan mustasno); texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga mos kelmaganda realizatsiya qilmaslik; b) tamaki mahsulotlarini realizatsiya qilishni bevosita amalga oshirayotgan shaxs yigirma bir yoshdan kichik ko‘ringan xaridordan uning shaxsi va yoshini tasdiqlovchi hujjatini ko‘rsatishni talab qilishi, hujjat mavjud bo‘lmagan taqdirda esa, tamaki mahsulotlarining, realizatsiya qilinishini rad etish; v) tamaki mahsulotlari realizatsiya qilinadigan joylarda ularni yigirma bir yoshga to‘lmagan shaxslarga realizatsiya qilish taqiqlanganligi haqidagi ogohlantiruvchi yozuv yoki belgi, shuningdek, tibbiy ogohlantirish joylashtirilgan bo‘lishi; g) tamaki mahsulotlarini yoyib qo‘yish va ochiq namoyish etmaslik. Chakana savdo uchun taklif etilayotgan tamaki mahsulotlari to‘g‘risidagi axborot sotuvchi tomonidan xaridorlar e’tiboriga savdo zalida sotiladigan tamaki mahsulotlari ro‘yxatini
--	--	--

		joylashtirish orqali yetkazilishi, ro'yxatning matni oq fonda bir xil o'lchamdagi qora rangli harflar bilan yoziladi va ro'yxat alfavit tartibida, sotiladigan tamaki mahsulotlarining va tamakini hamda nikotinni iste'mol qilish moslamalarining narxi ko'rsatilgan holda, biror-bir grafik tasvirlar va rasmlardan foydalanmasdan tuzilishi. Ko'chmas savdo obyektlarida tamaki mahsulotlarini xaridorga namoyish etish uning talabiga ko'ra sotiladigan tamaki mahsulotlar ro'yxati bilan tanishib chiqqanidan keyin amalga oshirilishi; d) tamaki mahsulotlarining chakana savdosiga doir faoliyat onlayn tarzda fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va (yoki) virtual kassa tizimlarini, shuningdek, bank plastik kartalaridan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallarini albatta qo'llagan holda amalga oshirilishi; e) tamaki mahsulotlari, shu jumladan, import qilingan bunday mahsulotlarning sotuvchisi har bir nomdagi mahsulot bo'yicha tayyorlovchining yoki yetkazib beruvchining imzosi bilan tasdiqlangan, har bir nomdagi mahsulot bo'yicha muvofiqlik sertifikatini mavjudligi haqidagi ma'lumotlar bo'lgan hisobga olish va ro'yxatdan o'tkazilganlik raqamlari, ushbu sertifikatning amal qilish muddati hamda sertifikatni bergan organ ko'rsatilgan tovar-transport hujjatlariga ega bo'lishi; j) O'zbekiston Respublikasining "Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi hamda iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida"gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevraldagi 75-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari talablariga qat'iy rioya qilishi.
10.	Izoh:	Tamaki mahsulotlari bilan chakana savdo qilishni boshlaganlik haqidagi xabarnoma har bir ulgurji savdo obyekti uchun alohida yuboriladi.

(29-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-iyuldagi 418-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.07.2024-y., 09/24/418/0508-son)

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 88-son qaroriga
2-ILOVA

Faoliyatni boshlash yoki tugatish bilan bog'liq ma'muriy shikoyatlarni respublika darajasida ko'rib chiqish bo'yicha Apellyatsiya kengashlarining namunaviy

TARKIBI

1. Vakolatli organning rahbari, *Kengash raisi*
2. Vakolatli organ rahbarining o'rinbosari, *Kengash raisi o'rinbosari*
3. Vakolatli organning ijro nazorati bo'yicha tarkibiy bo'linma rahbari, *Kengash a'zosi*
4. Vakolatli organning tarkibiy bo'linma rahbari, *Kengash a'zosi*
5. Vakolatli organning yuridik xizmat rahbari, *Kengash kotibi*

Izoh. Zarur hollarda, Kengash tarkibiga vakolatli organning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari va boshqa vazirliklar hamda tashkilotlarning rahbar va xodimlari jalb etilishi mumkin.

Kengash a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-fevraldagi 88-son qaroriga
3-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va
qo'shimchalar**

1. Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 23-martdagi 131-son qarori bilan tasdiqlangan Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi tartibi to'g'risidagi nizomning 13-bandidagi "o'n" so'zi "uch" so'zi bilan almashtirilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-oktabrdagi 725-sonli qaroriga asosan 2-bandning o'z kuchini yo'qotish sanasi — 2025-yil 3-fevral — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 02.11.2024-y., 09/24/725/0879-son)

3. Vazirlar Mahkamasining "Transport sohasidagi faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2003-yil 21-avgustdagi 360-son qarorining 3-bandida:

ikkinchi xatboshisidagi "shaharlararo," so'zi chiqarib tashlansin;

uchinchi xatboshisidagi "va yuklarni shaharda, shahar atrofida" so'zlari "shaharda, shahar atrofida va shaharlararo" so'zlari bilan almashtirilsin.

4. Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 28-iyuldagi 161-son qarori bilan tasdiqlangan Baholash to'g'risidagi hisobotlarning haqqoniyligini ekspertizadan o'tkazishni tashkil etish tartibi haqidagi nizomda:

a) 2-bandning uchinchi xatboshisidagi "baholash faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziyaga ega bo'lgan," so'zlari "ro'yxatdan o'tgan baholovchi tashkilotlarning professional jamoat birlashmasiga a'zo bo'lgan," so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 14-bandning uchinchi xatboshisidagi "baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziyani," so'zlari "baholovchi tashkilotlarning professional jamoat birlashmasiga a'zolari to'g'risidagi ma'lumotni va" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) 22-bandning ikkinchi xatboshisidagi "baholovchi faoliyatning litsenziyalovchi" so'zlari "ekspertizaning bajaruvchisi a'zo bo'lgan baholovchi tashkilotlarning professional jamoat birlashmasiga" so'zlari bilan almashtirilsin;

g) qarorga 1-ilova quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Baholash to'g'risidagi hisobotlarning haqqoniyligini ekspertizadan o'tkazishni tashkil etish tartibi haqidagi
nizomga
ILOVA

_____ -son hisobot bo'yicha ekspert xulosasi

“ _____ ”

(baholash to'g'risidagi hisobotning nomi)

20__ yil "___" _____ Toshkent shahri

1. Umumiy ma'lumotlar

Ekspertizani o'tkazish asosi: _____

Ekspertiza predmeti: _____

Ekspertiza turi: _____

Ekspertiza o'tkazilgan sana: 20__ yil "___" _____

Ekspert: F.I.O., lavozimi, baholovchining malaka sertifikati tartib raqami va uning berilgan sanasi

20__ yil "___" _____ da "___" _____ -son hisobot (keyingi o'rinlarda Hisobot deb ataladi) 20__ yil "___" _____ da "___" _____ jamoat birlashmasiga a'zo bo'lgan "___" _____ baholovchi tashkilot tomonidan 20__

yil “ ” da berilgan -son baholovchining malaka sertifikatiga ega bo‘lgan baholovchi tomonidan
20__ yil “ ” dagi -son Shartnoma bo‘yicha maqsadida bajarilgan.

(obyektning baholash sanasida identifikatsiya qilish imkonini beruvchi aniq tavsifi, yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan baholash obyekti bo‘yicha esa yuridik shaxsning rekvizitlari)

baholash obyekti hisoblanadi.

2. Baholanuvchi obyektga borgan holda baholanuvchi mol-mulkni tekshirish natijalari (dala sharoitida ekspertiza o‘tkazishda):

Dala sharoitida ekspertiza o‘tkazishda qo‘shimcha ravishda quyidagilar aniqlandi:

(so‘ngra ekspert tomonidan baholash obyektiga borgan holda baholanayotgan mol-mulkni tekshirish va baholash to‘g‘risidagi hisobotda ko‘rsatilgan ma‘lumotlarni tasdiqlash uchun mol-mulkning taqqoslanadigan obyektlarini tekshirish natijalari keltiriladi)

3. Baholash to‘g‘risidagi hisobotning baholash faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi

Hisobotda quyidagilar keltirilgan:

(so‘ngra ekspert tomonidan baholash to‘g‘risida taqdim etilgan hisobotning baholash faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga baholash obyekti baholash to‘g‘risidagi hisobot mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablarga rioya qilinishi bo‘yicha muvofiqligi haqidagi xulosalar keltiriladi).

Baholash maqsadlari uchun Hisobotda quyidagi yondashuvlardan foydalanilgan:

(so‘ngra ekspert tomonidan hisobotda Baholovchi tomonidan u yoki bu baholash yondashuvlaridan foydalanishning (yoki foydalanishni rad etishning) asoslanganligi to‘g‘risidagi xulosalar keltiriladi).

Daromad bo‘yicha yondashuvdan foydalanish:

Tanlangan yondashuv doirasida Baholovchi metodidan foydalandi.

(so‘ngra ekspert tomonidan foydalanilgan yondashuv doirasida Baholovchi tomonidan aniq metodni tanlashning to‘g‘riligi va asoslanganligi to‘g‘risidagi xulosalar keltiriladi.
Bundan tashqari, baholashning tanlangan metodi doirasida baholashni amalga oshirishda Baholovchi tomonidan foydalanilgan axborotlarning to‘liqligi va haqqoniyligi, hisoblashda Baholovchi tomonidan foydalanilgan miqdorlarning haqqoniyligi va asoslanganligini tahlil qilish natijalari keltiriladi).

Qiyosiy yondashuvdan foydalanish:

Tanlangan yondashuv doirasida Baholovchi metodidan foydalandi.

(so‘ngra ekspert tomonidan foydalanilgan yondashuv doirasida Baholovchi tomonidan aniq metodni tanlashning to‘g‘riligi va asoslanganligi to‘g‘risidagi xulosalar keltiriladi.
Bundan tashqari, baholashning tanlangan metodi doirasida baholashni amalga oshirishda Baholovchi tomonidan foydalanilgan axborotlarning to‘liqligi va haqqoniyligi, hisoblashda Baholovchi tomonidan foydalanilgan miqdorlarning haqqoniyligi va asoslanganligini tahlil qilish natijalari keltiriladi)

Xarajat bo‘yicha yondashuvdan

foydalanish:

Tanlangan yondashuv doirasida Baholovchi metodidan foydalandi.

(so‘ngra ekspert tomonidan foydalanilgan yondashuv doirasida Baholovchi tomonidan aniq metodni tanlashning to‘g‘riligi va asoslanganligi to‘g‘risidagi xulosalar keltiriladi.
Bundan tashqari, baholashning tanlangan metodi doirasida baholashni amalga oshirishda Baholovchi tomonidan foydalanilgan axborotlarning to‘liqligi va haqqoniyligi, hisoblashda Baholovchi tomonidan foydalanilgan miqdorlarning haqqoniyligi va asoslanganligini tahlil qilish natijalari keltiriladi)

Joriy etilgan chegirishlar va mukofotlar:

(Ushbu bo‘limda ekspert tomonidan hisoblashda Baholovchi tomonidan foydalanilgan chegirishlar va mukofotlar miqdorlarini qo‘llaganlikning asoslanganligi va ularning haqqoniyligi, shuningdek ularni aniqlashning haqqoniyligi to‘g‘risidagi xulosalar keltiriladi)

Baholashning har qaysi yondashuvi salmog‘ini asoslash:

Baholovchi (baholashda qiymatni aniqlashga yondashuvlarda foydalanilgan salmoqni belgilash metodidan) foydalandi.

(so‘ngra ekspert tomonidan Baholovchi yondashuvlarining salmog‘ini (koeffitsiyentlarini) belgilashning asoslanganligi to‘g‘risidagi xulosalar keltiriladi)

4. O‘tkazilgan ekspertiza xulosalari:

Yuqorida bayon qilinganlarga asosanib, 20__ yil “ ” dagi

“ ” ni baholash to‘g‘risidagi ko‘rib chiqilgan

(hisobot nomi)

-son hisobot deb e‘tirof etiladi.

(haqqoniy/haqqoniy emas)

Ekspertizani o'tkazgan ekspert _____ (imzo)

Ekspertizani o'tkazgan

baholovchi tashkilot rahbari _____ (imzo)

Baholovchi tashkilot muhri

Izoh: ushbu ekspert xulosasi faqat ilova qilinayotgan hisobotning to'liq matnini hisobga olgan holda, unda mavjud bo'lgan barcha yo'l qo'yishlar va cheklashlarni, shuningdek ekspertizani o'tkazishda foydalanilgan hujjatlarni e'tiborga olib talqin etilishi mumkin."

5. Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 12-apreldagi 68-son qarori bilan tasdiqlangan Muzeylarni tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi to'g'risidagi nizom 13-bandning to'rtinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"Milliy muzey fondi tarkibiga kiritilgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini tasarrufdan chiqarish yoki universal huquqiy vorislik tartibida yoxud boshqa usulda bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tkazganlik haqida xabardor qiluvchilar reyestrini yuritadi va ularning ushbu sohadagi faoliyatini nazorat qiladi;"

6. Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 23-sentabrdagi 211-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan sport maktablari to'g'risidagi nizomning 64-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"64. Sport maktabining trener-o'qituvchilar tarkibi oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar jismoniy tarbiya ma'lumotiga ega bo'lgan mutaxassislardan butlanadi. Bunda jismoniy tarbiya ma'lumotiga ega bo'lish nazarda tutilmagan sport turlari bo'yicha trener-o'qituvchilar tarkibi O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan shaxslardan butlanishi mumkin.

Shuningdek, trener-o'qituvchilar tarkibi sportning olimpiya va paralimpiya turlari bo'yicha Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari, Osiyo o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlari musobaqalarining g'olib va sovrindor sportchilaridan butlanishi mumkin.

Umumta'lim maktablarining jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari sport maktablariga o'rindoshlik asosida ommaviy sport turlari bo'yicha trener-instruktor lavozimiga ishga qabul qilinishi mumkin.

Sport maktabining trener-o'qituvchilari har besh yilda bir marta Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazida (yoki uning filiallarida) belgilangan tartibda malaka oshirishi lozim.

Malaka oshirish muddati o'tgan (yoki malaka oshirishdan o'tmagan) trener-o'qituvchilarga mehnat faoliyati davom ettirishga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'lim muassasalarining sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim yo'nalishi bitiruvchilari tegishli sport turi bo'yicha trener lavozimiga ishga qabul qilinganda uch yildan so'ng malaka oshirish kurslariga jalb etiladilar.

Bolalar va o'smirlar sport maktabiga ishga qabul qilinadigan futbol va regbi bo'yicha trenerlikka nomzodlar majburiy tartibda tegishli O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi va O'zbekiston regbi federatsiyasi bilan kelishiladi.

Sport bo'yicha trener-o'qituvchilar o'quv guruhlarini tanlaydi va to'ldiradi, o'quvchi-sportchilar bilan tarbiyaviy va o'quv-mashq ishlari olib boradi, o'quvchi-sportchilar tibbiy ko'rikdan va dispanser ko'rigidan o'z vaqtida o'tishini nazorat qiladi, o'quvchi-sportchilar uchun ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv-mashq rejalarini ishlab chiqadi, o'quv-mashq jarayonini takomillashtirish va unga eng samarali va zamonaviy shakllar va usullarni joriy etish bo'yicha takliflar kiritadi".

7. Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 12-iyundagi 169-son qarori bilan tasdiqlangan Xorijiy kinokompaniyalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida filmlarni kino va video tasvirga olish tartibi to'g'risidagi nizomning 6-bandi uchinchi xatboshisidagi "o'n besh kundan" so'zlari "besh ish kunidan" so'zlari bilan almashtirilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14-iyundagi 173-son qarori bilan tasdiqlangan Sport terma jamoalari to'g'risidagi nizomning 3-bandi to'qqizinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“trener — trenerlik faoliyati bo'yicha malaka oshirganlik haqidagi sertifikatga ega bo'lgan yoki ta'lim muassasalarining sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha) hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim yo'nalishini bitirgan (bunda bitiruvchi tegishli sport turi bo'yicha trener lavozimiga ishga qabul qilinganiga uch yildan oshmagan bo'lishi lozim), shuningdek, o'quv-mashq, ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarini, sport natijalariga erishish uchun bellashuv faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi jismoniy shaxs”.

Oldingi tahrirga qarang.

(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-oktabrdagi 679-sonli qaroriga asosan 9-bandning o'z kuchini yo'qotish sanasi — 2025-yil 18-yanvar — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.10.2024-y., 09/24/679/0824-son)

10. Vazirlar Mahkamasining “Sport maktablarini malakali trener kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida” 2014-yil 10-oktabrdagi 284-son qarorining 1-bandidagi “ruxsatnomaga ega bo'lgan” so'zlari “malaka oshirganlik haqidagi sertifikatga ega bo'lgan yoki ta'lim muassasalarining sport faoliyati hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ta'lim yo'nalishini bitirib, tegishli sport turi bo'yicha trener lavozimida ishlayotganiga uch yildan oshmagan” so'zlari bilan almashtirilsin.

11. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-oktabrdagi 290-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi hududida yo'q bo'lib ketish xavfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo qilish (CITES) sohasida ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risidagi nizomda:

31-banddagi “15” raqami “10” raqami bilan almashtirilsin;

Nizomga 1-ilovaning “2-bosqichi”, “Bajarish muddatlari” ustunidagi “5” sonlari tegishlicha “3”, “4”, “3” sonlari bilan almashtirilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

(O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-oktabrdagi 679-sonli qaroriga asosan 12-bandning o'z kuchini yo'qotish sanasi — 2025-yil 18-yanvar — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.10.2024-y., 09/24/679/0824-son)

13. Vazirlar Mahkamasining “Yer qa'ridan foydalanish, xavfli ishlar, xavfli tovarlar va moddalar, portlovchi materiallar ishlab chiqarish, ularning aylanishi sohasida hamda boshqa sohalarda ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2017-yil 6-iyundagi 360-son qarorida:

Oldingi tahrirga qarang.

(13-bandning “a” kichik bandi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-oktabrdagi 566-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2022-y., 09/22/566/0897-son)

b) 2-ilovada:

3-bandning “g” kichik bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

2-ilovaga 5-ilova o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

11-ilovaning:

2-bandi “Sroki rassmotreniya” ustunidagi “20” raqami “15” raqami bilan almashtirilsin;

4-bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

5-bandi “Sroki rassmotreniya” ustunidagi “20” raqami “15” raqami bilan almashtirilsin;

6.3-bandning 4-ustuni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“a) kopiya pasporta sklada (v ustanovlennix sluchayax);

b) kopiya akta priyemki mesta xraneniya vzrivchatix materialov v ekspluatatsiyu;

v) v sluchaye otsutstviya pasporta prilagayutsya sxema mesta xraneniya vzrivchatix materialov i plan prilgayushey mestnosti v radiuse, sootvetstvuyushem bezopasnomu rasstoyaniyu, rasschitannomu po udarnoy vozduzhnoy volne ot naibolshego po vmestimosti obyektu xraneniya vzrivchatix materialov;

g) dlya peredviynogo sklada dopolnitelno prilagayetsya svidetelstvo Gosudarstvennoy slujbi bezopasnosti dorojnogo dvijeniya (GSBDD) o yego dopuske k perevozke vzrivchatix materialov, s ukazaniyem rayona, obslujivayemogo skladom”.

Oldingi tahrirga qarang.

(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 21-iyuldagi 396-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.07.2022-y., 09/22/396/0656-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(15-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-iyuldagi 433-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan)

16. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 11-iyundagi 436-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi huzuridagi Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi to'g'risidagi nizomning 9-bandida "v" kichik bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"qazib olinadigan konlar bo'yicha yillik hisobot balanslarida foydali qazilmalar zaxiralarini qazib olish bilan bog'liq yer ostini o'rganish ishlari hisobini yuritadi, shuningdek, geologik o'rganish ishlari natijalarining, qazib oluvchi korxonalar hisobidan chiqarilayotgan qazib olingan va yo'qotilgan qazilmalarning haqqoniyligini ta'minlaydi".

17. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko'rib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 12-sentabrdagi 725-son **qarorida**:

a) 1-bandning **oltinchi xatboshisidagi** "xorijiy ishchi kuchini jalb qilishga ruxsatnomalarni" so'zlari chiqarib tashlansin;

b) 4-ilovada:

10-bandning **oltinchi xatboshisidagi** "yuridik shaxslarga xorijiy ishchi kuchini jalb qilishga ruxsatnomalarni va" so'zlari chiqarib tashlansin;

11-bandning **o'n ikkinchi xatboshisidagi** "xorijiy ishchi kuchini jalb qilish uchun yuridik shaxslarga ruxsatnomalar va" so'zlari chiqarib tashlansin;

18-bandning **uchinchi xatboshisidagi** "xorijiy ishchi kuchini jalb qilish uchun ruxsatnomalar berish (uzaytirish), shuningdek" so'zlari chiqarib tashlansin;

23-bandning **oltinchi** va **yettinchi xatboshisilari** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"yuridik shaxslarga va chet el fuqarolariga O'zbekiston Respublikasi hududida ishga joylashtirish bo'yicha vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnomalarni qonun hujjatlariga muvofiq beradi (uzaytiradi);

yuridik shaxslarga va (yoki) chet el fuqarolariga O'zbekiston Respublikasi hududida vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnomalar berishni (uzaytirishni) ta'minlaydi;"

18. Vazirlar Mahkamasining "Sanoat va radiatsiya xavfsizligi sohasidagi ayrim faoliyat turlarini litsenziyalashni va ruxsat berish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 2-oktabrdagi 782-son **qarorida**:

a) 1-bandning **to'rtinchi xatboshisi** chiqarib tashlansin;

b) 2-ilovaning **8-bandida**:

uchinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

to'rtinchi xatboshisi uchinchi xatboshisi deb hisoblansin;

v) **3-ilova** o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

19. Vazirlar Mahkamasining "Filmning ommaviy namoyishini amalga oshirish uchun bir martalik ruxsatnoma berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2018-yil 14-dekabrdagi 1012-son **qarorida**:

a) 1-ilovada:

19-banddagi "o'n besh" so'zlari "o'n" so'zi bilan almashtirilsin;

1-ilovaning 2-bosqichi bajarish muddatlaridagi "o'n besh" so'zlari "o'n" so'zi bilan almashtirilsin;

b) 2-ilovaning **1** va **3-bandlari** o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

Oldingi tahrirga qarang.

(20-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-avgustdagi 356-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.08.2023-y., 09/23/356/0619-son)

21. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 19-apreldagi 336-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi to'g'risidagi **nizomda**:

a) **17-bandga** quyidagi mazmundagi 5¹-kichik band bilan qo'shilsin:

“5¹) avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni xalqaro tashish faoliyatini litsenziyalashni, litsenziya/litsenziya varaqalari reyestrini yuritishni amalga oshiradi”;

6 va 7-kichik bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin;

b) 19-bandning **9-kichik bandidagi** “va yuk” so'zlari chiqarib tashlansin.

Oldingi tahrirga qarang.

(22-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-yanvardagi 23-sonli qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.01.2024-y., 09/24/23/0023-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(23-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi PQ-221-son qaroriga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.04.2022-y., 07/22/221/0357-son)

24. Vazirlar Mahkamasining “Tungi vaqtda faoliyat yurituvchi umumiy ovqatlanish korxonalari va ko'ngilochar obyektlarda jamoat xavfsizligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2019-yil 24-iyuldagi 624-son qarorining **3-bandida**:

a) **ikkinchi xatboshidagi** “tegishli ma'lumot taqdim etiladi” so'zlari “belgilangan tartibda xabarnoma yuboriladi” so'zlari bilan almashtirilsin;

b) **oltinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“tungi vaqtda faoliyat yuritayotgan umumiy ovqatlanish korxonalari va ko'ngilochar obyektlar tomonidan mazkur qarorning 2-bandida nazarda tutilgan talablar buzilsa, Faoliyatni boshlash yoki tugatish uchun vakolatli organni xabardor etish tartibi to'g'risidagi yagona nizomda belgilangan tartibda ularning tungi vaqtda faoliyat yuritish huquqi ichki ishlar organlari tomonidan to'xtatib turilishi va tugatilishi mumkin”.

25. Vazirlar Mahkamasining “Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida” 2019-yil 30-iyuldagi 636-son **qarorida**:

